

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“DAKga ruxsat etaman”

Pedagogika fakulteti dekani

_____ **f-m.f.n. X.Mavlyanov**

“ ” 2017- yil

5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalish

BT 48-2013-guruh bitiruvchisi

MAMADALIYEVA SAIDA ADXAMJON QIZINING

“BOSHLANG'ICH SINFDAN “IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLAR”

MAVZUSINI O'RGANISH METODIKASI ”

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»

BMI rahbar:

Boshlang'ich ta'lim metodikasi

o'qituvchi M. To'raboyeva

kafedra mudiri_____

f-m.f.n. T. Abdullayev

«___» _____ 2017-y.

Namangan -2017-y

REJA:

KIRISH

I bob. IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARNI O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Gap bo'laklarining shakliy - mazmuniy tuzilishiga ko'ra xususiyatlari.

1.2. Ikkinchi darajali bo'laklar turlari va ifodalanishi haqida ma'lumot.

II bob. BOSHLANG'ICH SINFLARDA IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARINI O'RGATISHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

2.1. 3- sinf ona tili darsida ikkinchi darajali gap bo'laklarini o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish.

2.2. 4- sinf ona tili darsida ikkinchi darajali gap bo'laklarini o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish.

2.3. Tajriba-sinov ishlari va natijalari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi.

Ajdodlarimizning asriy orzu-armonlari ro'yobga chiqayotgan istiqlol yillarida boshqa sohalar qatori, umummilliy masala bo'lmish ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish, shu jumladan, maktab ta'limini taraqqiy ettirish ishlariga ham davlatimiz rahbari doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatib kelmoqda. Qisqa davrda soha ravnaqi yo'lida zarur xuquqiy, ilmiy-uslubiy va moliyaviy sharoitlar yaratildi. Chunki kelajagimiz poydevori maktabda bunyod etiladi. Ulug' vatandoshlarimizdan biri takidlaganidek, maktab taraqqiyot, madaniyat va saodatning kalitidir.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti ta'kidlaganidek, "Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil bu ta'lim-tarbiya tizimi bo'lib, ular o'zaro chambarchas bog'liqdir. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi".¹

Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Muhtaram Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch» asarida "...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli, yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo'lishi lozim," deb ta'kidladi².

Ma'lumki ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim-tarbiyani inson kamoloti, millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Albatta, ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda u ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009, B. 61.

² I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – b.-61.

shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zlashtirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida olib borilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida milliy davlatchiligimiz poydevori mustahkamlanib, davlatimiz suvereniteti, chegaralarimiz daxlsizligi ta'minlandi, jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini kuchaytirish, qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklari hamda manfa'atlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Ana shunday ishlardan biri O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi loyihasini ishlab chiqilishi hisoblanadi. O'zbekiston Prezidenti 7-fevral kungi farmoni bilan 2017—2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini tasdiqladi. Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo'yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi. Xususan, 2017 yil — Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili deb e'lon qilindi. Jumladan, Harakatlar stratyegiyasining 4-bo'limida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan.

4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish;

maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ushbu muassasalaridagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning

maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish;

umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'atga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:

jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qoʻllab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish; yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratish; yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, taʼlim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

Shuningdek, Oʻzbekiston Prezidentining 2017- yil 20- apreldagi ”Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi PQ-2090 sonli qarori eʼlon qilindi. Oliy taʼlim tizimining kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish boʻyicha eng muhim vazifalar belgilab berildi. Bunda taʼlim-tarbiya jarayonlarining sifati ustidan samarali davlat nazoratini oʻrnatish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida Taʼlim sifatini nazorat qilish boʻyicha davlat inspeksiyasi tashkil etiladi. Uning asosiy vazifasi — taʼlim-tarbiya jarayoni, professor-oʻqituvchilar tarkibi, taʼlim tizimida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifati hamda mulkchilik shakli va idoraviy boʻysunishidan qatʼi nazar, taʼlim muassasalarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan oʻtkazish, taʼlim-tarbiya sifatini nazorat qilish boʻyicha davlat siyosatini amalga oshirishdan iborat.³

Oʻzbek (ona) tilini oʻqitish markazida til oʻrganuvchilarning oʻzaro hamda oʻqituvchisi bilan nutqiy muloqoti turmogʻi lozim boʻladi. Ammo mana shu muloqot toʻgʻri yoʻlga qoʻyilishi uchun grammatika qonun qoidalarini yaxshi bilishga qoʻmaklashuvchi topshiriqlardan iborat mashgʻulotlar nazariy yoki amaliy ahamiyat kasb etibgina qolmay, oʻquvchilarning til oʻrganishga boʻlgan qiziqishini shakllantiradi, orttirishga ham hissa qoʻshishi talab etiladi.

³Sh. Mirziyoyev. 2017- yil 20- apreldagi ”Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi qarori.

Ana shu qiziqishni shakllantirishda, uni tobora mustahkamlab borishda sintaksisni o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi har bir mavzu va topshiriqni nafaqat nutq o'stirishga, shuningdek, yoshlar dunyoqarashini boyitishga, tafakkur doirasini kengaytirishga ham xizmat qildirishi shart ekanligini yodda tutishi darkor.

Til ta'limidagi to'rt zaruriy amal – tinglash, so'zlash, o'qish va yozishning mutanosib tarzda olib borishga harakat qilish zarurligini ta'kidlash joiz. Ammo mavzuning mazmuniga mos ish tutib, bir xil topshiriqlar og'zaki nutq, boshqalari yozma nutq ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, o'zlashtirilgan har bir mavzu darsdan tashqari tadbirlar bilan uzviy bog'lanishiga erishish lozim. Bularni o'rni bilan sahna chiqishlarini tashkil etish, rolli o'yinlar o'tkazish yaxshi samara beradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda va odilona nazar tashlanganda tanlangan va amalga oshirilgan muammo (mavzu)ning o'zi nihoyatda dolzarbligini, qolaversa, uning o'quv jarayonidagi roli benihoyat katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

BMIning maqsad va vazifalari. BMIning yozishda “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, bu sohaga oid ilmiy, uslubiy adabiyotlar, qo'llanmalar, ma'ruzalar va boshqa manbalardan, shuningdek, Respublikamizning taniqli metodist olimlari A.Zunnunov, Q.Yo'ldashev, Q.Abdullaeva, M.Yusupov, O.Madaev, M.Mirqosimova K.Qosimova G'.Yuldashevlarning ilmiy metodik ishlaridan, “Boshlang'ich ta'lim” jurnalidagi ilmiy-metodik maqolalardan va tajribali o'qituvchilarning fikrlaridan keng foydalandim. Fikrlarimni isbotlashda yana universitetimiz olimlarining ma'ruzalaridan, ularning chop etilgan maqola va risolalaridagi fikrlarini ham istifoda etdim. Boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida o'quvchilarning tafakkurini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari, xususan, boshlang'ich sinflarda ikkinchi darajali bo'laklarini o'rgatish metodikasini

ishlab chiqish, boshlang'ich sinfda ikkinchi darajali bo'laklari tushunchasini o'rgatishda ularga qo'yiladigan talablarni aniqlash, o'quv topshiriqlarining tuzilishi, vazifalari va imkoniyatlarini tavsiflash, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning faol fikrlashlarini va tafakkurini rivojlantirishda gapning va gap bo'laklarining o'rni va rolini belgilash, uning muhim vosita ekanligini lingvistik-grammatik o'yinlar vositasida o'quvchi-yoshlarning bilim saviyalari yanada yuqorigi bosqichlarga ko'tarish va mustahkamlash borasida fikr-mulohazalar yuritish, shu sohada qo'llangan dastlabki ijodiy tajribalarimizni baholi qudrat bayon etish-muhokamaga qo'yilgan ushbu kamtarin malakaviy bitiruv ishimizning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni o'z oldimizga qo'ydik:

1. Tilshunoslikda gap bo'laklarining o'rganilish darajasini aniqlab chiqish.
2. Gap bo'laklarini funksional va struktural o'rganish tarixini o'rganib chiqish.
3. Ikkinchi darajali bo'laklar va ifodalanishini tahlil qilish.
4. Boshlang'ich sinflarda gap bo'laklarini o'rgatish metodikasini ishlab chiqish.
5. Boshlang'ich sinflarning ona tili ta'limi darslarida amalga oshiriladigan, o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladigan mustaqil o'quv topshiriqlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
6. Nutq o'quvchilarning faol fikrlashlarini shakllantiruvchi asosiy manba sifatida va vosita ekanligini izohlash;

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ikkinchi darajali bo'laklardan aniqlovchini o'rgatish yo'li bilan o'quvchilar bilimlarini mustahkamlash.

BMIning obyekti va usullari. Tajriba uchun Mingbuloq tumanidagi 10-umumta'lim maktabning 3-sinflarini obyekt sifatida tanladik. Mavzuga oid fikrlar, kuzatishlar, taklif va mulohazalar shu sinflarda o'tkazilgan tajribalarga suyanan holda bayon qilindi. Mavzuga tajribali

o'qituvchilarning ochiq darslarini kuzatgan holda yondashdim. Tajriba davomida ikkinchi darajali bo'laklar o'tish jarayonida o'quvchilar faolligini oshirishda interfaol usullardan foydalandim. O'z mulohazalarimni, takliflarimni, kuzatishlarimni ishda to'la yoritishga harakat qildim. Bular biz tanlagan mavzuning tajribadan o'tganligini bildiradi.

BMIning tarkibiy tuzilishi. Malakaviy ish kirish, 2 asosiy bob, 5 band, xulosa va tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxatidan iborat. BMIning umumiy hajmi kompyuter nusxada __ sahifani tashkil qiladi

I bob. IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARNI O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI

I.1. Gap bo'laklarining shakliy - mazmuniy tuzilishiga ko'ra xususiyatlari.

Gapdagi so'zlar bir - biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, bu so'zlarning har biri gap tarkibida biror grammatik vazifani bajaradi. Gap bo'laklari sintaktik kategoriya bo'lib, gap tarkibidagi elementlarning o'zaro munosabatini, bu munosabatning xarakterini, gapning grammatik jihatdan qanday bo'laklarga ajralishini, so'zning gapdagi o'rnini ko'rsatadi. Demak, bunday grammatik munosabatda gap bo'laklarining aloqasini, bog'lanishini ko'ramiz.

Tobe aloqa tarkibida muayyan sintaktik vaziyatda keluvchi eng kichik sintaktik shakl gap bo'lagi sanaladi. Har qanday gap bo'lagi shakliy jihatdan moddiy asos (morfologik shakl) va sintaktik vaziyat (sintaktik shakl) qarama - qarshiligi va birligidan iborat. Morfologik shakl sintaktik shaklning vujudga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi⁴.

Gap bo'laklarining sintaktik qurilmani tashkil qilishdagi o'rnini bir xil emas. Ayrim bo'laklar gap qurilishida markaziy o'rinni egallaydi. Bu bo'laklar gap qurilishidan chiqarib tashlansa, gap shakliy tomondan ham, mazmun tomondan ham o'z xususiyatini yo'qotadi. Ayrim gap bo'laklari esa gap qurilishida yetakchi rol o'ynamaydi. Ular gap qurilishida ishtirok etib, gapning axborot hajmini kengaytiradi. Shunga muvofiq, gap bo'laklari an'anaviy tilshunoslikda ikki darajaga bo'linadi: a) bosh bo'laklar; b) ikkinchi darajali bo'laklar.

Formal – funksional yo'nalishda gapning lisoniy qurilishidan faqat kesim, ega va hollargina o'rin oladi. Aniqllovchi va to'ldiruvchilar hamisha so'z kengaytiruvchilari bo'lib keladi va gap qurilishiga bevosita aloqador emas. Aniqllovchi va to'ldiruvchilar hamisha so'z kengaytiruvchilari

⁴ Xolmanova. T.Z. Tilshunoslikka kirish. Toshkent.2005-yil.148-b;

bo'lib keladi va gap qurilishiga bevosita aloqador emas. Ular so'z birikmasi sathiga mansubdir va shu sababli so'z birikmalari doirasida tadqiq etilishi lozim.⁵ Gap ham shunga muvofiq, yig'iq (faqat bosh bo'laklardan iborat bo'lgan gaplar) va yoyiq (ikkinchi darajali bo'laklar ham ishtirok etgan) gaplarga bo'linadi.

Gapning tuzilish asosini tashkil etgan gap bo'laklari bosh bo'laklar hisoblanadi. Bosh bo'lak bo'lgan ega grammatik jihatdan absolyut (mutlaq) hokim bo'lsa ham, lekin uning gapga xos belgilarini ko'rsatishda kesimning ahamiyati katta. Modallik, zamon, shaxs - son ko'rsatkichlari kesim tarkibida bo'lganidek, intonatsion tugallik ham kesim orqali anglashiladi.

Demak, ega gapning nima haqda ekanligini, nimadan boshlanishini (ya'ni temani) bildirsa, kesim biror narsa haqida qanday xabar berilishini, hukmni, shu gap orqali maqsad qilingan narsani - yangilikni bildiradi. Shunga ko'ra, aytish mumkinki, gapda asos kesimdir⁶.

Ikkinchi darajali bo'laklarning vazifasi bosh bo'laklarni aniqlash, ulardan anglashilgan fikrni to'ldirib kelishdir. Ular bosh bo'laklar bilan zich bog'liq bo'lib, gapning strukturasiga shular orqali kiradi. Masalan: *Dehqon chol bizning so'zlarimizni zavqlanib tingladi* ("Sh.Yu."). Bundagi ikkinchi darajali bo'laklardan biri (*dehqon*) ega (*chol*)ni aniqlab kelgan, boshqa ikkitasi (*so'zlarimizni, zavqlanib*) kesimni aniqlab kelgan, yana biri (*bizning*) boshqa bir ikkinchi darajali bo'lakni aniqlab kelgan.

Ikkinchi darajali bo'laklarga to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol kiradi.

Ega kesimning subyekt (agens) valentligini to'ldiruvchi va u bilan moslashuv munosabatida bo'luvchi bosh kelishikdagi sintaktik shakl ega hisoblanadi.

⁵ Qurbonova M.Ko'rsatilgan manba . 32-b.

⁶ Xolmanova. T.Z .Tilshunoslikka kirish. Toshkent.2005-yil.148-b;

Ega vaziyati kesimga qarab belgilanadi. Faqat kesim bilan tobe munosabatda bo'lgan bosh kelishikdagi sintaktik shaklgina ega vaziyatida kela oladi.⁷

Ega shakliy tomondan ham ikki unurning - morfologik shakl va sintaktik shaklning qarama - qarshiligi va birligidan tashkil topgan. Sintaktik shakl umumlashgan namuna sifatida bir necha morfologik shakllarda namoyon bo'ladi:

1. Bosh kelishikdagi ot shakli: *Sayfi Soqiyevich do'mboq qo'lini siltadi (O'.H.)*

2. Olmosh shakli: *U xayoliga kelgan bema'ni fikrdan o'zi kuldi (O'.H.)*

3. Harakat nomi shakli: *Ertalab yugurish - foydali.*

4. Birikmali so'z shakli: *Bir bosh uzum tarelkada turgan edi (O'.H.)*
Havas bo'lsa, anqoning tuxumi ham topiladi.

5. Otlashgan so'zlar:

a) otlashgan sifat shakli: *Yaxshilar ko'paysin, yomon qolmasin (Maqol);*

b) otlashgan son shakli: *Aslida ikkovlarning ham adashdinglar (O'.H.);*

v) otlashgan sifatdosh shakli: *Qimirlagan qir oshar (Maqol);*

g) otlashgan taqlid so'z shakli: *Tog'dan oqib tushayotgan tiniq suvlarning shildir - shildir dillarga orom beradi (O.Yo.);*

d) otlashgan undov so'z shakli: *Qo'shnilarning urasi olamni tutib ketdi.*

e) otlashgan ravish shakli: *Ko'p so'zning ozi yaxshi, oz so'zning o'zi yaxshi (Maqol).*

6. Bog'lovchi shakli: *Har «yomon»ning bir ammosi bo'lishi kerak, har «yaxshi»ning bir lekini (A.Q.).*

7. Ayrim tovush shakli: *Shu ulug' nomlar - la ochildi maktab. «M» - budir va bunday yoziladi «G» (G'. G').*

⁷ Xolmanova. T.Z. Tilshunoslikka kirish. Toshkent. 2005-yil. 148-b;

Eganing ma'no turlari. Ega ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Harakatni yuzaga chiqaruvchi subyekt (agens): *Odina mollarini haydab, tog' etagiga yurdi (S.A.).*
2. Holat subyekti: *Bola uxlayapti.*
3. Belgi tashuvchi subyekt: *Otam - saxiy.*
4. Miqdor subyekti: *Bolalar to'rtta.*
5. Egalik qiluvchi subyekt: *Unda orden.*
6. Mavjudlik subyekti: *Kitoblar bor.*
7. Qiyoslanuvchi subyekt: *Akasi ukasidan esliroq.*

Ega tuzilishiga ko'ra sodda va tarkibli egalarga bo'linadi.

Faqat birgina morfologik shakldan tashkil topgan sintaktik shakl sodda ega, ikki va undan ortiq morfologik shakldan tashkil topgan sintaktik shakl tarkibli ega hisoblanadi. Masalan: *Vatanimiz qudrati – do'stlikda. Erta turish foydali.*

Kesim. O'zida predikativlikni aks ettiradigan, gapni uyushtiruvchi va shakllantiruvchi markaziy bo'lak kesimdir. Kesim gapning markaziy bo'lagi bo'lganligidan gapning butun tavsifi - grammatik kategoriyalari: tasdiq - inkorlik, shaxs (personallik), zamon (temporallik), kommunikativ maqsad va h.k.lar kesimga qarab belgilanadi.

1. Kesim gap qurilishida uyushtiruvchilik rolini o'ynaydi. Qolgan bo'laklar kesimning kengaytiruvchilari, ya'ni gap kengaytiruvchilari hisoblanadi. Gapning yangi axborot tashuvchi qismi ham kesim sanaladi. Demak, kesim ham uyushtiruvchi markaz, ham axborot markazidir.

Kesim quyidagi morfologik shakllarda namoyon bo'ladi:

Fe'l shakllarida: *Qor allaqachon erib ketgan, ammo hali bahor kirmagan (O'.H.)*

Bosh kelishikdagi ot shaklida: *Siz yaxshi odamsiz (O'.H.).*

Vosita kelishiklaridagi ot shaklida: *Manavinisi sarig'idan (O'.H.).*

Sifat shaklida: *Ko'pchilikning haqi yetim haqidan yomon (Maqol).*

Ravish shaklida: *Buning ustiga, talaba bo'lishni xohlaydiganlar ko'p (O'.H.)*

Olmosh shaklida: *Ha, xuddi o'zi (O'.H.)*.

Son shaklida: *Ayollarning joni qirqta (Maqol)* va boshqalar.

Kesimlarni ifodalanishiga ko'ra ikki guruh (fe'l - kesim, ot -kesim)ga ajratish mumkin .

Fe'l kesimlar shaxsli fe'llar bilan ifodalanadi. Fe'l kesimning xarakterli belgisi shuki, bevosita kesimlik shakllarini olib, ega bilan sintagmatik munosabatga kirishadi. Kesim - gap qurilishining markazi.

Fe'l predikat quyidagi morfologik ma'nolarni o'zida birlashtiradi:

a) subyekt harakati: *Mashina yurdi ; Bola o'ynadi.*

b) subyekt holati: *Kasal uxladi;*

v) payt: *Bahor kelsa, gullar ochilar;*

g) shart: *Sen kelsang, biz boramiz;*

d) istak: *O'lkamiz gullarga burkansa;*

e) maqsad: *Aspiranturada qoldirishmoqchi* va boshqalar.

Sintaktik shakl birligi bo'lgan fe'l kesim sintaktik ma'no birligi predikat bilan o'zaro munosabatdadir. Ular bir butunlikning o'zaro qarama - qarshi ikki tomoni sanaladi. Kesim bilan predikat o'zaro uzviy bog'liq bo'lsa ham, lekin ular bir hodisaning ikki tomoni bo'lgani sababli ma'lum o'ziga xoslikka ega. Predikat predikativlik bilan chambarchas bog'liq. Har qanday predikativlik predikat asosida shakllanadi. Predikativlik shakllari predikatga qo'shiladi.

Predikat va kesim bir - birini taqozo qiluvchi, o'zaro dialektik aloqada bo'lgan tushunchalar bo'lsa ham, lekin ular bir hodisaning ikki qarama - qarshi tomoni bo'lganligi sababli doimo bir-biriga muvofiq kelavermaydi.

Ot kesim fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan ifodalanadi. Fe'ldan boshqa so'z turkumlari kesim bo'lib kelganda bog'lama, kesimlik ko'rsatuvchi tuslovchilar yoki intonatsiya bo'lishi shart. Bog'lama kesimdan keyin kelib, kesimni grammatik jihatdan shakllantirish, uning

semantikasini taraqqiy ettirish, fikrni tugallash, shaxs - son, zamon, modallik kabi grammatik ma'nolar ifodalash, kesimning ega bilan munosabatini ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi yordamchi vositalar bog'lama sanaladi.

Bog'lama quyidagicha ifodalanadi:

1. *Edi, ekan, emish* kabi to'liqsiz fe'llar bilan: *Usta Azim sharqcha binolar qurishda mohir edi (O.).*

2. Predikativ –modal so'zlar bilan (kerak, zarur, shart, lozim, mumkin): *Klub ishini faqat Bashoratxon bajarishi mumkin (Asq.M).*

3. Ko'makchi fe'llar bilan: *Noz - ne'mat to'la dasturxon ustida suhbat boshlanib ketdi (O.).*

4. Ko'makchilar bilan: *Baliqning tirikligi suv, odamning tirikligi el bilan (Maqol).*

5. *Bor, yo'q, emas* so'zlari bilan: *Uch soatdan beri biron kimsa duch kelgani yo'q (Asq. M.).*

6. *Sanaladi, hisoblanadi, iborat* so'zlari bilan: *Korxonaning tarixi safarbarlikdan iborat (Asq. M.)*

7. Predikativlik affikslari bilan: *Biz ham inson o'g'limiz (H.H.).*

Bog'lamalar tuzilish jihatidan so'z – bog'lama va affiks bog'lamaga bo'linadi.

Ot kesim ot, sifat, son, olmosh, ravish kabi so'z turkumlari bilan ifodalanadi. Ot kesim quyidagi ma'nolarni ifodalaydi⁸:

a) predmet: *Bu - kitob;*

b) belgi: *Kitob - qiziqarli ;*

v) ko'rsatish: *Topganim - shu;*

g) miqdor: *O'zi bitta, qulog'i to'rtta.*

d) o'lchov: *Suv - tizzadan va boshqalar.*

⁸ Bu haqda qarang: Tojiyev O. O'zbek tilida ot predikatli gaplarning mazmuniy va sintaktik tuzilishi: Filol. fan. nom.. diss... avtoref. - Toshkent, 1995, - 25 b.

Kesimlar tuzilish jihatdan uch turga bo'linadi: sodda kesimlar, tarkibli kesimlar, birikmali (murakkab) kesimlar.

Sodda kesimlar bir qismdan tuziladi va ifodalanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: sodda fe'l kesim, sodda ot kesim.

Tarkibli kesim analitik shakldagi qurilmalar bilan ifodalanadi. Tarkibli kesimlar ifodalanishiga ko'ra, tarkibli fe'l kesim va tarkibli ot kesimlarga bo'linadi. Tarkibli fe'l kesimlar ikki yoki undan ortiq negizdan tashkil topgan fe'llar bilan ifodalanadi. Bunda fe'llarning biri o'zining ma'nosini saqlab, yetakchi fe'l hisoblanadi, qolganlari yetakchi fe'ldan anglashilgan harakatning bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan turli qo'shimcha ma'nolarni ifoda etib, ko'makchi fe'l hisoblanadi: *Erta bahor quyoshi kecha yog'ib turgan yomg'irning namini yerdan sug'urib olayotir (O.).*

Tarkibli fe'l kesim ba'zan juft fe'llar bilan ham ifodalanishi mumkin: *Gapning naq onasini aytdingiz - qo'ydingiz (P.T.).*

Murakkab ot kesimlar keng ma'nodagi ot bog'lama yoki to'liqsiz fe'l tipidagi qurilmalar bilan ifodalanadi. Bunda asosiy ma'no otdan anglashilib kesimning ega bilan moslashuvini ta'minlaydi: *Kelgan ikki kishi professor ekan (O.)⁹*

Murakkab ot kesim harakat nomi + kerak, zarur, (lozim, darkor) tipidagi qurilmalar bilan ham ifodalanadi: *El moliga uzatilgan qo'llarni kesish kerak (O.). Ishning mana shu ikki tomonini o'rganishimiz, juda yaxshi bilishimiz zarur (A.Q.).*

Murakkab ot kesim ba'zan chiqish kelishigi shaklidagi so'z + iborat tipidagi qurilmalar bilan ham ifodalanadi: *Vazifamiz yig'im - terimni muvaffaqiyatli yakunlashdan iborat ("Xalq so'zi").*

Murakkab ot kesim *bor, yo'q* so'zlari va to'liqsiz fe'l tipidagi qurilmalar bilan ifodalanadi: *Jamoangizda ko'pgina tashabbuskor yoshlar bor ekan (Sh.X.).*

⁹ Xolmanova. T.Z. Tilshunoslikka kirish. Toshkent.2005-yil.148-b;

Ikki va undan ortiq so'zlarning grammatik - semantik munosabatidan tashkil topib, bir butun holda kesim sifatida shakllangan hodisalar murakkab kesim sanaladi.

Murakkab kesimlar quyidagicha ifodalanadi:

1. Turg'un birikmalar bilan: *Bizning Vatanimiz O'zbekiston Respublikasidir.*
2. Frazelogik birikmalar bilan: *Mirzakarimboy ilonning yog'ini yalagan (O.).*
3. Izofa xarakteridagi, ko'chma ma'noli qaratqichli birikmalar bilan: *Otalar so'zi – aqlning ko'zi (Maqol).*

1.2. Ikkinchi darajali bo'laklar turlari va ifodalanishi haqida ma'lumot

Bevosita bosh bo'lakka, o'rni bilan bir - biriga bog'langan bo'lakni izohlovchi, aniqlashtiruvchi sintaktik kategoriyalar ikkinchi darajali bo'laklar deb yuritiladi.

Kesimning obyekt valentligini to'ldirib keluvchi kelishikli va ko'makchili morfologik shakllar orqali ro'yobga chiqadigan sintaktik shakl to'ldiruvchi sanaladi.¹⁰

To'ldiruvchi vaziyatidagi sintaktik shakl quyidagi morfologik shakllar asosida namoyon bo'ladi:

1. Ot:

a) ot + tushum kelishigi: *she'rni yodladi, xat yozdim;*

b) ot + vosita kelishiklari: *uzumdan yedi, kitobdan o'qidik;*

v) ot + ko'makchi: *kitob haqida eshitdim;*

2. Olmosh :

a) kishilik olmoshi + tushum kelishigi: *seni ko'rdim;*

b) kishilik olmoshi + vosita kelishiklari: *unga berdim;*

v) kishilik olmoshi + ko'makchi: *u haqda eshitdim;*

g) ko'rsatish olmoshi + kelishik: *o'shanga atadim, o'shani ko'rdim.*

¹⁰ Xolmanova. T.Z. Tilshunoslikka kirish. Toshkent.2005-yil.148-b;

3. Son + kelishik: *ikkini ikkiga qo'shdi*.

4. harakat nomi bilan: *Laylakning ketishiga boqma, kelishiga boq (Maqol)*.

5. Otlashgan so'zlar:

a) otlashgan sifat: *Yaxshidan bog' qolar*;

b) otlashgan ravish: *Ko'pdan quyon qochib qutulmas (Maqol)*.

v) undov so'zlar bilan: *Ana shunda men g'alaba urasini eshitdim (M.Sholoxov)*.

g) yordamchi, taqlidiy so'zlar bilan: *-Ha, mayli, lekinini ham ko'rish kerak («Sh.Yu»)*.

To'ldiruvchilar, o'zlari bilan bog'lanib kelayotgan gap bo'lagi bilan aloqaga kirish usuliga ko'ra, vositasiz va vositali to'ldiruvchilarga bo'linadi¹¹.

Hokim bo'lakda ifoda qilingan harakatni bevosita o'ziga qabul qilgan predmetni bildiruvchi to'ldiruvchilar vositasiz to'ldiruvchilar deb ataladi. Vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishigi shaklidagi so'zlar bilan ifodalanadi: *Tog'lar shaharni o'rab turganga o'xshaydi (Ya.)*.

Vositasiz to'ldiruvchi belgili va belgisiz holatda bo'ladi. Bu, albatta, ma'no va grammatik talabga ko'radir.

O'z hokim bo'lagiga bog'lanib, shu bo'lak orqali ifodalangan harakatning yuzaga kelishida qurol - vosita vazifasini vositali to'ldiruvchi bajaradi. Vositali to'ldiruvchi jo'nalish, o'rin - payt, chiqish kelishigidagi so'zlar hamda ko'makchilar bilan ifodalanadi: *Sunbulning har bargidan tiniq buloq suvi tomib turardi. (Asq. M.). Po'latning qulog'iga uzoqda aytilayotgan yoqimli qo'shiqlar eshitildi. (Sh.R.). O'qiz usta Hazratqul yuragida nimalar kechayotganini yaxshi tushunib turibdi. (Sh.R.)*.

Ko'makchili to'ldiruvchilar qaysi ko'makchi bilan kelishiga qarab, harakatning kim yoki nima haqida ekanligini, atash, maqsad, sabab,

¹¹ Xolmanova. T.Z. Tilshunoslikka kirish. Toshkent.2005-yil.148-b;

birgalik kabi ma'nolarni ifoda etadi: *Sultonmurod Iskandar Zulqarnayn to'g'risida latifa so'yladi (O.). Shuni bilkim, jon uchun jon olamiz, Shuni bilkim, to'kamiz qon uchun qon (H.O.). Po'lat Bahor bilan yoshligidanoq birga o'sdi (Sh.R.).*

Vositasiz to'ldiruvchi ba'zan chiqish kelishigi shaklidagi so'z bilan ham ifodalanadi: *Sen menga osmondagi gaplardan emas, yerdagi haqiqatdan gapir (P.T.).*

Predmetning belgisi, qarashlilikini ifoda qiluvchi gap bo'lagi aniqlovchi deyiladi. Bu o'rinda belgi tushunchasi keng ma'noda qo'llanib, sifat, rang, tus, xususiyat, maza, shakl, hajm, miqdor - daraja ma'nolarini ifoda qiladi: *ko'k daftar, shirin haqiqat, katta bino, g'ayratli bola, ko'p gap* va h.k.

Aniqlovchilar otga bog'lanadi. Aniqlovchilar anglatgan ma'nolariga ko'ra, sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilarga bo'linadi¹².

Sifatlovchi aniqlovchi otni aniqlab, odatda, shu ot bilan ifodalangan predmetni ajratishga, konkretlashtirishga, uning ma'no doirasini toraytirishga xizmat qiladi. Sifatlovchilar quyidagicha ifodalanadi:

Sifat bilan: *Anhorning bog'dan chiqib ketadigan tomoni yam-yashil maysazor (S. Z.).*

Son bilan: *Erkin uchta mevali daraxt o'tqazdi. («Sh. Yu»).*

Olmosh bilan: *Qancha odam kelibdi? (A.Q.).*

Ravish bilan: *Ko'p odam yig'ildi. (So'zl.).*

Ot bilan: *Oq oltinni oltin qo'llar yetishtiradi.*

Sifatdosh bilan: *Aytilgan so'z - otilgan o'q. (Maqol).*

Predmetning qarashlilikini ko'rsatib kimning?, nimaning?, qaysi?, qanday? kabi so'roqlarga javob bo'lgan aniqlovchi qaratqich aniqlovchi deb ataladi. Qaratqich vazifasida qo'llanuvchi so'z qaratqich kelishigi shaklida, qaralmish esa egalik shaklida keladi: *tog'ning havosi, bulbul nag'masi* kabi.

¹² Xolmanova. T.Z. Tilshunoslikka kirish. Toshkent. 2005-yil. 148-b;

Qaratqichli aniqlovchilar grammatik va semantik jihatdan belgili va belgisiz bo'lishi mumkin: *Artilgan, tozalangan sari semiz otlarning badanlari yarqiraydi (O.). Va'damiz bir yerda qaror topdi (G'.G').*

Qaratqich aniqlovchi quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi:

Ot bilan: *Yo'lchi mehmonlarning otlarini temir qoziqlarga qantarib bog'ladi. (O.).*

Olmosh bilan: *Sening ko'zlaring hammani o'ziga maftun etadi.*

Otlashgan sifat bilan: *Yomonning yaxshisi bo'lguncha, yaxshining yomoni bo'l! (Maqol).*

Otlashgan son bilan: *Ikkalasining ham bo'yi o'sibdi. (So'zl.).*

Otlashgan sifatdosh bilan: *Ishlaganning yuzi yorug' bo'ladi.*

Qaratuvchi belgili va belgisiz bo'ladi. Bu, albatta, ma'no xarakteriga ko'radir. Qiyos qiling: *Institut bog'ida har xil gullar ochilib yotibdi // Institutning bog'ida har xil gullar ochilib yotibdi.*

Izohlovchi predmetga boshqacha nom berish, uni boshqacha atash yo'li bilan aniqlaydi. Izohlovchi bog'lanib kelgan bo'lak izohlanmish sanaladi. Izohlovchi va izohlanmish bitishuv yo'li bilan aloqaga kirishib, izohlovchili birikmani hosil qiladi. Bunda har ikki bo'lak, asosan, ot bilan ifodalanadi.¹³

Izohlovchilar quyidagi ma'nolarni anglatadi:

1. Unvonni: *Professor A. N. Kononov atoqli tilshunos olimdir.*
2. Mashg'ulot, kasb, amalni: *Yo'lchi o'z do'sti Qoratoy temirchi bilan hangomalashib o'tirar edi. (O.).*
3. Qarindoshlik va shunga o'xshatilgan belgini: *To'xta xola uzoqdan kelayotgan ikki kishining qorasini ko'rdi. (I.R.).*
4. Jinsni: *Uzoqda qiz bolalarning ashulasi yangradi.*
5. Laqabni: *Ayvon pastida Soli sovuq bilan Juman pismi qo'l qovushtirib turardi. (M.I.)*

¹³ Xolmanova. T.Z. Tilshunoslikka kirish. Toshkent.2005-yil.148-b;

6. Taxallusni: *Otaqo'zi o'g'li Rahmatulla – Uyg'un yirik o'zbek shoiridir.*

7. O'xshashlikni: *Ozodlikka olib chiqdi yurtboshi - quyosh.*

Kesimning holat, o'rin-payt, sabab, maqsad, miqdor kabi o'rinlarini to'ldirib keluvchi sintaktik shakl hol deyiladi.

Hol fe'l kesim valentligini yuzaga chiqaruvchi gap bo'lagi bo'lganligi uchun u bevosita fe'l kesim bilan sintagmatik munosabatga kirishadi. "Hollar, to'ldiruvchilardan farqli o'laroq, so'z va gap kengaytiruvchilari mavqelariga ega bo'lib, o'zlarining boy leksik – morfologik vositalar tizimi bilan ish ko'radi".¹⁴

Hol vaziyatidagi sintaktik shakl quyidagi morfologik shakllar asosida namoyon bo'ladi:

1. Ravish shakli: *Dilshod xolasining yoniga tez yetib keldi. (M.I.).*

2. Fe'l shakli:

1) ravishdosh:

a) fe'l + (i) b: *Katta idoralarni chalg'itib, bizni yomon otliqqa chiqarib yurganligingiz uchun hali javob berasiz. (O'.U.);*

b) fe'l + -gach: *Do'stini ko'rgach, ishdan tutadi.*

v) fe'l + guncha: *Temirni qizarguncha o'tda tobladi;*

g) fe'l + (a) y: *Kula - kula yig'latdi. (A.N.);*

d) fe'l + gani (-gali): *Qo'zi bordi suv ichgali.*

2) sifatdosh:

a) -gani uchun (sababli, tufayli): *Yo'qlab kelganingiz uchun rahmat! (Ya.);*

b) -ganidan;

v) -ganiga;

g) -gan holda (-ganicha): *Saltanat karavotga o'tirganicha ancha vaqt xomush turdi. (O`.U.)*

¹⁴ Akramov Sh. Ko'rsatilgan manba. 17-b .

3) harakat nomi: *Muhandis Manzura bilan ko'rishish uchun o'rnidan turdi. (Asq.M.);*

4) Ot + vosita kelishiklari: *Andijonda o't yoqsam, O'shda tutuni. (Qo'shiqdan).*

5) Olmosh + vosita kelishiklari: *Bu yerda na g'urbat, na kulfat, na g'am. (G'.G'.);*

6) Taqlidiy so'z shakli: *Yuragi qinidan chiqquday duk - duk uradi. (O.).*

6. Son shakli: *Yetti o'lchab bir kes (Maqol)*

7. Sifat shakli: *Topshiriq yaxshi bajarildi.*

Hollar ma'nolariga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

1. Ravish holi ish - harakatning qay tarzda bajarilishini yoki qanday bo'lishini anglatadi.

Ravish holi quyidagicha ifodalanadi:

Holat ravishi bilan: *Osmon sekin - asta qizara boshladi.*

Olmosh bilan: *Qurilishda ish qanday boryapti?*

Ravishdosh bilan: *Mahfuza kulib so'zlar edi.*

Sifatdosh + holda tipidagi konstruksiya bilan: *Begona yigit men tomon tik qaragan holda kela berdi.*

Ko'makchili so'z bilan: *G'ulomjon ildam qadam bilan borardi.*

Taqlid so'z bilan: *Shabada g'ir - g'ir esardi.*

2. Payt holi -ish - harakatning bajarilish payti, uning chegarasini bildirib, payt ravishi, o'rin, chiqish, jo'nalish kelishiklaridagi hamda ko'makchili so'zlar bilan ifodalanadi: *Husn to'yda kerak, muhabbat kunda kerak (Maqol); Kechga tomon havo o'zgardi.*

Payt holining ma'nolari:

a) ish - harakatning paytini bildiradi: *Odiljon yarim kechasi Beshserka qishlog'iga yetib keldi (A.Q.).*

b) ish - harakatning boshlanish paytini ko'rsatadi: *Bu baqaterakni va undagi laylak uyasini bu yerning qariyalari ham bolaligidan biladi (Asq. M.).*

v) payt chegarasini ko'rsatadi: *Jo'raxon zalni anchagacha tinchitolmadi (Asq. M.).*

g) ish - harakatning boshlanish va tugash paytini ko'rsatadi: *Ular soat birdan ikkigacha dam olishadi. (So'zl.).*

d) ish - harakatning boshqa harakat va holatdan oldin bo'lish yoki bo'lmasligini ko'rsatadi: *To'qqiz yil burun mana shu bozor ko'chada, mana shu o'zimiz o'tirgan imorat derazasining tagida katta mojaro bo'lgan (Asq. M.).*

e) ish - harakatning boshqa harakat holatidan keyin bo'lgan – bo'lmaganligini ko'rsatadi: *Kirib yotgandan keyin Ro'zvon xola anchagina eri haqida o'y surdi (Asq.M.).*

j) ish - harakatning bir vaqtda yuz berishini ko'rsatadi: *U meni ko'tarib ketayotib qattiq yarador bo'ldi (Asq. M.).*

z) ish - harakatning hamma vaqt takrorlanib turishini ko'rsatadi: *Onasi bilan erta - yu kech dalada timirskilanib yuradi (X.G').*

3. o'rin holi ish - harakatning bajarilish o'rnini bildirib, o'rin ravishi, ot va olmoshlar bilan ifodalanadi. O'rin holi quyidagi ma'nolarni anglatadi:

a) ish - harakatning bo'lish o'rnini: *Tog'da – bog'da yashaydi, qishin - yozin yashnaydi (Topishmoq)*

b) ish - harakatning yo'nalish o'rnini: *Turistlar Hamzaobodgacha mashinada borishdi.*

v) harakatning boshlanish o'rnini: *Sal o'tmay Shirinoy daladan aytib keldi (O.)*

4. Sabab holi ish - harakatning bajarilish sababini bildiradi.

Sabab holi quyidagicha ifodalanadi:

Ot bilan: Bunda ot chiqish, jo'nalish, o'rin kelishiklaridagi yoki ko'makchili so'zlar bilan ifodalanadi: (P.T.) *Zulfiya kasalligi tufayli darsga kela olmadi.*

Olmosh bilan: *Nega sayohatga chiqish kechiktirildi?*

Harakat nomi bilan: Bunda ham harakat nomi kelishik shaklida yoki ko'makchili keladi: ... *Sir ochilib qolishidan qo'r qar edi (G'.G').* .
Havoning buzilishi sababli sayohat qoldirildi.

Sifatdosh bilan: Bunda ham yuqoridagi holat yuz beradi: *Odil uyalganidan qizarib ketdi (O.). Zulfiya yaxshi o'qigani uchun imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirdi.*

Ravish bilan: *Feruza bekordan - bekorga xafa bo'ldi.*

Taqlid so'z bilan: *Shov - shuvdan notinch bo'ldik.*

5. Maqsad holi ish - harakatning bajarilish maqsadini bildirib, nega?, nimaga?, nima maqsadda?, qanday maqsadda?, kim uchun?, nima deb? so'roqlariga javob bo'ladi. Maqsad holi ko'pincha *maqsadida, umidida, niyatida, uchun* ko'makchilari bilan birga kelgan harakat nomi, maqsad ravishi, ravishdoshning *-gali* affiksli shakli va jo'nalish kelishigidagi ayrim so'zlar bilan ifodalanadi: *Nazira vazifani tezroq bajarishga harakat qildi. Biz institutni muvaffaqiyatli bitirish uchun astoydil harakat qilmoqdamiz. Musobaqa g'oliblarini qarshi olgani to'plandik. Dilnoza bu yerga ataylab keldi.*

Maqsad holi ikki ko'rinishga ega:

1) aniq maqsad hollari: *Bu gal o'z o'quvchilarini Oysha xolaning yoniga olib kelish uchun ruxsat berdi. (S.Z.).*

2) noaniq maqsad hollari: *Ular atayin aylanma yo'ldan yurdilar (Asq.M.).*

6. Miqdor holi ish - harakatning bajarilish miqdorini bildirib, qancha?, necha marta? so'roqlariga javob bo'ladi. Miqdor -daraja holi quyidagicha ifodalanadi:

Miqdor - daraja ravishi bilan: *Ko'p bilgan oz so'zlar (Maqol).*

Son bilan: *Bu romanni ikki marta o'qib chiqdim.*

Olmosh bilan: *Necha marta sayohatga bording?*

Ot bilan: *Anorni yashik - yashik olib kelishdi.*

7. To'siqsizlik holi ma'lum bir harakatning bajarilishida to'siqsizlik bo'lishiga qaramay shu harakatning bajarilishini anglatadi. To'siqsizlik holi nimaga qaramasdan?, nimaga qaramay?, nima demay? so'roqlariga javob bo'ladi. To'siqsizlik holi mazmunan ikki xil bo'ladi:

1) ichki to'siqsizlikni ko'rsatadi, bunda kesimdan anglashilgan harakat bir shaxs, predmetga tegishli bo'ladi: *Men xohlasam – xohlamasam otin oyiga qatnashishim shart edi (S.A.).*

2) tashqi to'siqsizlikni bildiruvchi hol biror shaxs, biror predmet xususiyatining bajarilishiga to'siq bo'la olmasligini ko'rsatadi: *Oysuluv juda charchadi, shunga qaramay, yana shuncha yurgisi kela berdi (B.K.).*

8. Shart holi harakat ifodalaydigan bo'lakka bog'lanib, shu bo'lak orqali anglashilgan harakatning sodir bo'lishidagi sharoitni ko'rsatadi va hokim bo'lakka - *sa* affiksi yordamida bog'lanadi: *Borsam injenerni boshlab kelaman (O.)* Shart holli gaplarda sub'yektning bajarilishi mo'ljallangan, biroq hali yuzaga kelmagan ikki xil harakat ideyasi bo'ladi. Bulardan biri hol - yordamchi harakat, ikkinchisi hol bog'langan so'z - asosiy harakat orqali anglashiladi. Asosiy harakatning yuzaga kelish - kelmasligi yordamchi harakatning bajarilish - bajarilmasligiga bog'liq: *Sirni sizga aytib berganimni bilib qolishsa o'ldirishadi (H.G'). Meni ko'rsa toyginam xursand bo'lib kishnaydi (Z.D.).*

I bob. BOSHLANG'ICH SINFLARDA IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARNI O'RGATISHDA OYINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

2.1. 3- sinf ona tili darsida ikkinchi darajali gap bo'laklarini o'rgatishda interaktiv usullardan foydalanish.

Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida o'qituvchilarning o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga ta'sirini yuqori baholab shunday degan edi: "Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu hamqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebeho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot – o'qituvchi murabbiylarning olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.

Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o'zimizda yaxshi tasavvur qilamiz⁴".

Bugun ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida maqsad qo'yilgan. Bu o'quvchilarga ijodiy jihatdan o'z-o'zlarini namayon qilishlari uchun imkoniyat yaratish va ularda ijobiy-shaxsiy sifatlarning shakllanishiga ko'maklashishdan iborat. Shu boisdan ham, bugungi kunda o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarini yaxshilash maqsadida ta'lim samaradorligini

4. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2008-y. 130-bet

oshiruvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy ta'lim ravnaqini ta'lim tarbiya amaliyotida samarali va tejamli, yangi shakl, vositalarni qo'llash, izlanish orqali yuqori natijalarga erishishni ko'zlovchi pedagogik texnologiyalar ta'minlaydi.

Nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyaning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tug'ildi? «Pedagogik texnologiya» nimani anglatadi?

Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi¹⁵.

Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqitirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va muminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi

¹⁵ Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi.

Pedagogik texnologiya mohiyat-e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir.¹⁶

Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo'lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g'amxo'rlik, ta'lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e'zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan shug'ullanishi va o'zini o'zi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi. Mazkur jarayonda talaba o'z o'quv faoliyatining subyekti

¹⁶ Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta'lim jarayonining subyekti - ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etadi.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi¹⁷.

An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va o'g'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli "axborotli o'qitish" sifatida tafsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baholanmoqda.

Birinchidan, pedagogik texnologiya ta'lim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalanadi. Binobarin har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniqlab beradi va shunga mos holda ma'lum pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya mazmunini umumiy holda belgilab beradi. «Maqsad» esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zarurligini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, ilmiy texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko'payib, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib borayotganligi va o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalarning ta'lim sohasiga kirib kelayotganligi, o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta'lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan va unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan

¹⁷ Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli vositalar mavjudki ular yangi pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantirdi.

Uchinchidan, sanoat va boshqa texnologiyalarning auditoriyaga uzluksiz kirib kelishi va jonli o'quv ob'ektlariga aylanishi o'qituvchining an'anaviy metodika doirasidan chiqib ketishiga va tabiiy ravishda, texnologik yondashuvlarni qo'llashga ehtiyojni tug'dirmoqda.

Bugunning har bir pedagogi har tomonlama rivojlangan, yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab, davlatimizga munosib mutaxassis yetkazishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Shunday ekan, u pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etish va ta'lim sifati, samaradorligini oshirishda o'z hissasini qo'shish zimmasidagi asosiy vazifalardan biri ekanligini unutmasligi lozim.

"Texnologiya" tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan texnos- san'at, hunar va logos-fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topib, "hunar fani " ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi, texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon, bu – mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlari (xom ashyo) ga bosqichma- bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina) ning faoliyatidir. «Pedagogik texnologiya» so'z birikmasi asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta'limda esa fan bo'yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi. Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratish, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali

o‘qitishdir¹⁸. O‘zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o‘quv jarayonini to‘liq qamrab olishi kerak.

Texnologiya deganda sub'ekt tomonidan kiritilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya g'ar doim zaruriyat vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadni amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Texnologiya – zamonaviy ilmiy-amaliy tafakkur mahsuli degan xulosaga kelish mumkin. U faoliyatni tubdan takomillashtirishga, uning natijaviyligini, tezkorligini, texnikaviy qurollanganligini oshirishga oid amaliy tadqiqotlar yo'nalishini aks ettiradi.

Shunday qilib, “texnologiya” deganda insonning aniq, murakkab jarayonni ketma-ketli o'zaro bogliq mualaja va amallar tizimiga taqsimlash yo'li bilan kafolatli natijaga erishish maqsadida amalga oshiriladigan usullar tushuniladi.

Texnologiya (jarayon sifatida) uchta qoida bilan tavsiflanadi:

- jarayonni o'zaro bog'liq bosqichlarga taqsimlash;
- izlanayotgan natijaga (belgilangan maqsad) erishishga qaratilgan harakatlarni izchil va bosqichma-bosqich bajarish;
- qo'yilgan maqsadga mos natijaga erishishning zaruriy sharti hisoblangan texnologik mualaja va amallarni bajarishning alohida ahamiyat kasb etishi.

Hozirgi kunda jahon miqiyosida ishlab chiqarilgan va foydalanilgan texnologiyalarni ikki turga bo'lish mumkin: sanoat va ijtimoiy texnologiyalardir. Ijtimoiy texnologiyalar har qanday sharoitga moslasha oladi.

¹⁸ Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarishda texnologiya so'zidan kelib chiqadigan quyidagi tushunchalar ishlatiladi:

Texnologik jarayon- ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig'indisi.

Texnologik operatsiya - ishchi tomonidan o'zining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko'rinishidagi jarayonning bir qismi.

Texnologik xarita- ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

Texnologik rejim - texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo'lib, ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Ana shu ta'rif va tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chirsak quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchining o'quvchilarga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Pedagogik nashrlarda «o'qitish texnologiyasi», «ta'lim texnologiyasi» tushunchalari ham ishlatiladi¹⁹

Pedagogik texnologiya inson ongi, tafakkuri bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushuntirish mumkin bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etadi. Uning o'ziga xos jihati – tarbiya

¹⁹ Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

muammosini ham qamrab olishidir. Demak, texnologiya samaradorligi inson o'zining ko'p qirrali tomonlari bilan unda qanchalik to'liq namoyon bo'lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularning kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinyapti, degan savollarning yechimiga bog'liq ekan. Shu jihatdan olganda texnologiya shaxsning rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash kabi imkoniyatlarga ham ega bo'ladi. Bu esa pedagogning texnologik jarayon bilan ishlash qobiliyatiga bog'liq.

Ta'lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta'limi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardandir²⁰.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiya mohiyat jihatdan boshqa texnologiyalar bir safda turadi, chunki ular kabi boshqalari ham o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga ega, ma'lum "material" bilan ish ko'radi. Biroq Pedagogik Texnologiyalar inson ongi bilan bog'liq bilimlar soxasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish, biologik xatto axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos tomonlari –tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganliklaridir. Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini, oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Pedagogik texnologiya asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi va u o'qituvchining yaqin ko'makdoshiga aylanadi yoki uning funksiyalarini to'liq bajarishi mumkin.

²⁰ Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

Natijada, mantiqiy bog'langan qisqa yo'llardan shunday olib boriladiki, oqibatda o'quvchilar deyarli xato qilmaydilar va o'quvchi ularning natijasini ma'lum qilish bilan mustahkamlash imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim maqsadini to'la amalga oshirish sari yana yangi qadamlar qo'yiladi.

O'qitishning interfaolli-gi-o'quvchining bilish faoliyatini faollashtirish va o'zaro tahsir asosida tayyorgarlik samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biridir.

Interfaol mashg'ulot-o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot; jarayon hamkorlikda kechadi.²¹

Interfaol metodlar o'qituvchi bilan o'quvchining faol munosabati, bir-birini to'liq tushuntirishga asoslanadi. Interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo'lmasin, qaerda o'tkazilmasin darsda o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlikda ishlashini va natijada o'zlashtirishlarini tahminlashi lozim. Bunda o'qituvchi faqat fasilitator (yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, kuzatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi) vazifasini bajaradi. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi.

Interfaol metodlarda o'qitishning mohiyati quyidagicha:

- o'rgatuvchi ham o'rganuvchi ham ma'lumotlar bilan faol ishlashi;
- o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi va o'rgatishi;
- o'qituvchiga «o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish uchun» xizmat qilsa, o'quvchilarga esa, «fikrlashni o'rganishlari uchun» xizmat qilishi;

Interfaol usullardan foydalanish shakllari:


1. Individuallashtirish;
2. Kichik guruhlariga ajratish;

²¹ Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

3. Tabaqalashtirish:

4. O'rgatish va o'rganish jarayonida demokratik, do'stona muhitni yaratish;

5. O'zaro muloqot, hamkorlikni tashkil etish.



Interfaol metodlar

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda, baxs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o'quv-seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida), yoki o'quv rejasi

asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan qatorda o'quvchi talabalarni, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishda, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.²²

Maqsad.

Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarini bayon etishga yordam beradi.

O`TKAZISH TEXNOLOGIYASI.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi.

1-Bosqich

- trener tinglovchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo'lgan muammoni, yoki o'rganilgan bo'limni belgilab oladi;
- trener o'quv mashg'ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo'lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma'lumot beradi;
- mashg'ulot davomida har bir tinglovchi o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o'tiladi.

2- Bosqich

Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4-bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatilgan:

F- fikringizni bayon eting.

S- fikringizni bayoniga sabab ko'rsating.

M- ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

²² Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

U- fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda qog'ozdagi FSMU-ning 4-bosqichini o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda to'ldiradi.

3- Bosqich

Har bir tinglovchi o'z qog'ozlarini to'ldirib bo'lgach, trener ularni kichik guruhlariga bo'linishlarini iltimos qiladi yoki o'zi turli guruhlariga bo'lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlariga bo'lib yuboradi;

trener har bir guruhga FSMU texnologiyasining

4-bosqich yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi;

trener kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda

4-bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etadi.

4- Bosqich

- kichik guruhlarda avval xar bir tinglovchi o'zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o'tadi. Guruh a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;
- guruh a'zolari FSMU ning 4-bosqichini har biri bo'yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radilar;
- Fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o'z fikrlarini himoya etishi, isbotlanishi mumkin.

5- Bosqich

- kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar: guruh vakili har bir bosqichni alohida o'qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Bahzi bo'limlarni isbotlashi, yahni guruhlarning aynan nima uchun, shu fikrga kelganini aytib o'tishi mumkin.

6- Bosqich

- trener mashg'ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi;

- quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojat qiladi:
- ushbu trening yordamida nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o'rgandingiz?
- ushbu texnologiyani o'quv jarayonida qo'llanilishi qanday samara berdi?
- ushbu texnologiyani qo'llanilishi o'quvchi-talabalarda qanday xislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?
- ushbu texnologiyaning o'quv jarayonining qaysi bosqichida qo'llanilgani mahqul va nima uchun?
- ushbu texnologiyani dars jarayonida qo'llanilishi o'quvchi talabalarga nima beradi va nima o'rgatadi?
- ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o'tkazish mumkin?
- ushbu treningning asosiy vazifasi nimadan iborat.

IZOH: yuqorida keltirilgan savollar har bir treningning mazmuni, maqsadidan kelib chiqib trener tomonidan tinglovchilarga yoki o'quvchi-talabalarga berilishi mumkin.

Tarqatma materialning taxminiy nusxasi.

FSMU TEKNOLOGIYA SI

(F) - fikringizni bayon eting

(S) - fikringizni bayoniga biron sabab ko'rsating

(M) -ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring

(U) - fikringizni umumlashtiring.

Masalan:

F - Men odamlar xonada chekishiga qarshiman.

S -SHifokorlar tahkidlashicha, passiv kashandalik saraton kasalligiga chalinish va nafas olish yo'llari xastalanishiga maydon yaratadi.

M - Tamaki tutuniga yaqin borsam, har doim boshim aylanadi.

«Aqliy hujum»

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida mahlum ko'nikma hamda malakalarni xosil qilishga rag'batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni to'ish imkoniyati tug'iladi. «Aqliy hujum» metodi tanlab olingan mavzular doirasida mahlum qadriyatlarni aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi²³.

Mashg'ulotlar jarayonida «Aqliy hujum» metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi. Ushbu qoidalar quyidagilar:

1. Mashg'ulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish.

2. Har bir ta'lim oluvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalar miqdori rag'batlantirilib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi yangi fikr yoki g'oyalarning tug'ilishiga olib keladi.

3. Har bir ta'lim oluvchi o'zining shaxsiy fikri yoki g'oyalariga asoslanishi hamda ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (g'oya)larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikr (g'oya)larning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

4. Mashg'ulotlar jarayonida ta'lim oluvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan

²³ Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo'l qo'ymaydi. Agarda ularning fikr (g'oya)lari baholanib, boriladigan bo'lsa, ta'lim oluvchilar o'z diqqatlarini, shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Mazkur metodni qo'llashdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirish ekanligini etibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Mashg'ulot jarayonida ushbu metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagilarga amal qilish lozim:

1. Mashg'ulot ishtirokchilarining o'zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish.

2. G'oyalarni yozib berish uchun yozuv taxtasi yoki varaqalarni tayyorlab qo'yish.

3. Muammo (yoki mavzu)ni aniqlash.

4. Mashg'ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan shartlarni belgilash. SHartlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

a) ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan xar qanday g'oya baholanmaydi;

b) ta'lim oluvchilarning mustaqil fikr yuritishlari, shaxsiy fikrlarini ilgari surishlari uchun qulay muxit yaratiladi;

v) g'oyalarning turlicha va ko'p miqdorda bo'lishiga ahamiyat qaratiladi;

g) boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni yodda saqlash, ularning fikrlariga tayangan holda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar asosida muayyan xulosalarga kelish kabi harakatlarning ta'lim oluvchilar tomonidan sodir etilishiga erishiladi.

5. Bildirilayotgan g'oyalarni ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish.

6. Muayyan qog'oz varaqlari g'oya (yoki fikr)lar bilan to'lgandan so'ng ularni yozuv taxtasiga osib qo'yish.

7. Bildirilgan fikrlarni yangi g'oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash.

8. Boshqalar tomonidan bildirilgan fikr (g'oya) lar ustida kulish, ularga nisbatan kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

9. Ta'lim oluvchilar tomonidan yangi g'oyalar bildirilishi davom etayotgan ekan, muammoning yagona to'g'ri yechimini ehlon qilishga shoshilmaslik.

Aqliy xujum metodi to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

Izoh: Bu usuldan 1-4 sinf o'qish, ona tili, matematika, atrofimizdagi olam, odobnoma, mehnat darslarida qo'llash tavsiya etiladi. Bu metod orqali mavzulardagi bosh goya va tushunchalar tizimi saralanadi.

Izoh: Bu usuldan 1-4 sinf o'qish, ona tili, matematika, atrofimizdagi olam, odobnoma, mehnat darslarida qo'llash tavsiya etiladi. Bu metod orqali mavzulardagi bosh goya va tushunchalar tizimi saralanadi.

IKKINCHI DARAJALI BOLAKLAR

123- mashq. O'qing. Matnda nechta gap borligini aniqlang.

Do'lana tog'larda o'sadi olimlar do'lanada darmon- dorilar borligini aniqladilar hozir uning mevasi va gulidan shifobaxsh dorilar tayyorlanadi

Ko'chiring. Har bir gapning oxiriga nuqta qo'ying. Bosh bo'lak- larning tagiga chizing.

Nima uchun gapda boshqa so'zlar ham ishtirok etgan? Ular gapning mazmuniga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Gapning asosiy mazmuni bosh bo'laklardan anglashilib turadi. Gapdagi fikr yana ham to'liqroq bo'lishi uchun boshqa so'zlar ham ishtirok etadi.

Bunday soʻzlar ikkinchi darajali bolaklardir. **Bular, odatda, bosh boʻlaklar bilan boglanib, gapning mazmunini toldiradi.**

Ikkinchi darajali boʻlaklar ham gapda maʼlum bir soʻroqqa javob boladi.

yosh qoʻshiqchilar tanlovga puxta tayyorlandilar.

1. bosh boʻlaklar: (kimlar?) *qoʻshiqchilar* — ega, (nima qildilar?) *tayyorlandilar* — kesim.

2. ikkinchi darajali boʻlaklar: *qanday* qoʻshiqchilar? — *yosh qoʻshiqchilar*. nimaga tayyorlandilar? — fan/oʻlga *tayyorlandilar*. qanday tayyorlandilar? — *tayyorlandilar*.

124- mashq. Gaplarni mazmuniga mos soʻzlar bilan toldirib yozing.

Oʻquvchilar sinfga ... keltirdilar. Akvariumda mayda... suzyapti. Suvda yashil ... oʻsadi. Bolalar baliq- chalarga navbat bilan

Foydalanish uchun soʻzlar: *baliqchalar, akvarium, qaraydilar, oʻtlar*.

Qoʻyilgan soʻzlarga soʻroq bering, ular gapning qaysi boʻlagi vazifasida kelgan? Ikkinchi darajali boʻlaklar nima uchun qollangan?

125- mashq. Matnni oʻqing. Bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarni aniqlang.

Tokzorlarda bogʻbonning ishlari kuzda koʻpayadi. Toklarning ortiqcha novdalari qirgʻiladi. Qoldirilgan novdalar birlashtirilib boglanadi. Ular tuproqqa koʻmiladi. Bu bilan hosilli kurtaklar sovuqdan saqlanadi.

Koʻchiring. Ega bilan kesimning tagiga tegishli chizing. Ikkinchi darajali bolaklarning tagiga toʻliq chizing.

126- mashq. Oqing.

Kuchli shamol qo'zg'aldi. Ulkan daraxtlar qattiq silkindi. Sarg'aygan barglar yerga to'kildi. Zamin barglar bilan qoplandi. Sersavlat daraxtlar chiroyini yo'qotdi.

Gaplarni ko'chiring. So'roqlar yordamida gap bo'laklarini namunadagidek tahlil qiling.

Namuna: *Kuchli shamol qo'zg'aldi.* Nima qo'zg'aldi? — *shamol* (ega); *shamol* nima qildi? — *qo'zg'aldi* (kesim); qanday shamol? — *kuchli* (ikkinchi darajali bolak).

127- **mashq.** Nuqtalar o'rniga so'roqlarga mos so'zlar tanlab, matnni toldiring. (nimani?) ... yoritdi. (Qanaqa?) ... shabada

OQSHOM

(Qanday?). quyosh botdi. (Qayerni?) ... qorong'-(Qayerda?) oy ko'rindi. (Qanaqa?) ... oy

esmoqda. Sayohatchilar (qancha?) ... suhbatlashdilar.

Matnni yozing. Tanlagan so'zlaringiz gapning qaysi bolagi? Ularni tegishli chiziq yordamida belgilang.

Foydalanish uchun so'zlar: *atrofni, to'lin, horg'in, yoqimli, uzoq, osmonda, kechani.*

128- **mashq.** Har bir qatorda berilgan so'zlardan gap tuzing.

dalalarni, g'ozapoyadan, tozaladilar, dehqonlar haydadi, yerni, traktorda, traktorchi qizg'in, borayotir, ishlar, dalalarda

Tuzgan gaplaringizni yozing. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni tegishlicha belgilang.

2.2. 4- sinf ona tili darsida ikkinchi darajali gap bo'laklarini o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish.

O'quvchilarga sinfdoshlar bilan birgalikda hozirgi vaqtda jamoatchilik fikrini to'liqlantirayotgan mavzularda dialoglar

rejalashtirish imkonini berish kerak. Yozma bahslar metodikasi yozma shakldagi bunday dialoglarni sinfdagi barcha o`quvchilar ishtirokida o`tkazish imkonini beradi. Metod o`quvchilarning berilgan mavzu sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish sharoitini yaratadi. Munozara madaniyatini o`rgatish, asoslash qobiliyatini rivojlantiradi.

O`tkazish texnologiyasi:

1-bosqich. Mashg`ulot boshlanishidan avval stollarni quyidagi rasmdagidek qo`yib chiqing (4 guruh ikki stolda qarama-qarshi, ammo bir-biriga bevosita yaqin joylashadi).

2-bosqich. Ta`lim oluvchilarga yozma debatlar o`tkazish uslubi haqida ga`irib berib.

- debatlar-ikki tomon o`rtasidagi yozma muloqot shaklidir;
- debatlar ikki o`quvchi yoki o`quvchilar guruhlari o`rtasida o`zaro olib borilishi mumkin;
- ushbu uslub bahsli, mavzularni muhokama qilganda ayniqsa foydalidir;
- munozara `aytida o`quvchilar faqat o`z asosli dalillarini taqdim etadi, qolaversa boshqa tomonning asosli dalillariga javob beradi;
- texnika o`quvchilarning muhokama qilinayotgan muammolariga doir bilimlarni chuqurlashtiradi, munozara madaniyatini o`rgatadi, asoslab berish malakasini oshiradi;
- o`qituvchi qo`lga kiritgan ajoyib material baholash uchun asos bo`lib xizmat qiladi.

3-bosqich. Ishtirokchilarni 3 guruhga bo`ling. Guruhlarni stolga o`tkazing. Bu mashqda 1-4 guruhlar mavzuni qo`llab-quvvatlashini, 5-8 guruhlar esa qarshi chiqishini tushuntiring. 1-guruh 5-guruh, 2-guruh 6-guruh, 3-guruh 7-guruh, 4-guruh 8-guruh bilan bahs yuritadi. 1-4 guruhlarga qizil, 5-8 guruhlarga qora rangli flomaster tarqating. Debat yuritiladigan jadvalni tanishtiring. Asosiy tamoyillarni eslatib. 1-4 guruhlarga jadvallarni to`shirib, mashq boshlanishi uchun signal bering.

4-bosqich. Mashq yakunlanganidan so`ng debatlarni birinchi tugatgan guruhlar vakillaridan `lakatlarni o`qishni iltimos qiling (biron-bir sharhsiz). Agar ihtiyoringizda vaqt qolsa, boshqa guruhlardan ham o`z `lakatlarini o`qib berishni iltimos qilish mumkin.

Mavzu: (O`qituvchi tanlaydi)

Ha

Sizning eng kuchli asosli dalillaringiz?

Yo`q

Boshqa tomonning asosli daliliga javob qaytaring? Sizning eng kuchli asosli dalillaringiz?

Javob

Asosli dalil

Javob

Asosli dalil

Javob

Asosli dalil

Javob

Yakun:

Izoh: Boshlangich ta`limning 3-4 sinf darslarida o`qish, ona tili, darslarida qo`llash tavsiya etiladi. Bu metodda munozara madaniyatini o`rgatish, asoslash yozma va ogzaki nutqini o`stirish va qobiliyatini rivojlantirishda foydalaniladi.

«Zigzag» strategiyasi metodi

Sinf o'quvchilari 7ta guruhga bo'linadilar va guruh nomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlarga to'shiriladi. O'quvchilar matnlarni diqqat bilan o'rganadilar va ga'irib beradilar. Vaqtni tejash maqsadida guruh a'zolari orasidan liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Liderlarning fikrlari guruh a'zolari tomonidan to'ldirilishi mumkin. Barcha guruhlarining o'quvchilari o'zlariga to'shirilgan matn mazmuni xususida so'zlab berganlaridan so'ng, matnlar guruhlararo almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. SHu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlar tomonidan o'rganib chiqilgach o'quvchilar o'tilgan mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o'zaro mantiqiy bog'liqligini aniqlaydilar, yuzaga kelgan g'oyalar asosida mavzuga oid sxema ishlab chiqiladi. So'ngra o'zlashtirilgan bilimlar asosida o'quvchilarning o'zlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi to'shiriladi.²⁴

Izoh: Boshlangich ta'limning 3-4 sinf darslarida qo'llash tavsiya etiladi. Bu metodda o'quvchilarni mustaqil ijodiy fikrlashga o'rgatish, mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirish, ogzaki va yozma nutqini rivojlantirish uchun foydalaniladi.

«Klaster» metodi

Klaster metodi `edagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu) lar xususida erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bimalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi.

²⁴ Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

«Klaster» metodi aniq obhektga yo`naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog`liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta`lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda `uxta o`zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo`lishini tahminlashga hizmat qiladi. Guruh asosida tashkil etilayotgan mashg`ulotlarda ushbu metod guruh a`zolari tomonidan bildirilayotgan g`oyalarning majmui tarzida nomoyon bo`ladi.

Bu esa guruhning har bir a`zosi tomonidan ilgari surilayotgan g`oyalarni uyg`unlashtirish hamda ular o`rtasidagi aloqalarni to`a olish imkoniyatini yaratadi.

«Klaster» metodini o`tkazish texnologiyasi:

1-bosqich. Nimaniki o`ylagan bo`lsangiz, shuni qog`ozga yozing. Fikringizni sifati to`g`risida o`ylab o`tirmay, ularni shunchaki yozib boring.

2-bosqich. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga ehtibor bermang.

3-bosqich. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to`xtamang. Agar mahlum muddat biror-bir g`oyani o`ylay olmasangiz, u holda qog`ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g`oya tyg`ilgunga qadar davom ettiring.

4-bosqich. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko`roq yangi g`oyalarni ilgari surish hamda mazkur g`oyalar o`rtasidagi o`zaro aloqadorlik va bog`liqlikni ko`rsatishga harakat qiling. Foyalar yig`indisining sifati va ular o`rtasidagi aloqalarni ko`rsatishni cheklamang.

Stil va stil g`oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan «Klaster» metodi `uxta o`ylangan strategiya bo`lib, undan ta`lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg`ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.

Izoh: Boshlangich ta'limning 3-4 sinf darslarida qo'llash tavsiya etiladi. Bu metodda o'quvchilar bir so'zni atroflicha izoxlab berishga, uning bir necha variantlarini to'ishda foydalaniladi.

«Skarabey» texnologiyasi

«Skarabey» interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiqiy xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muommoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. «Skarabey» texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi:

- boshida-o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida («aqliy hujum»);
 - mavzuni o'rganish jarayonida-uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish;
 - oxirida-olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.
- «Skarabey» texnologiyasi o'quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega. Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko'rsatish mumkin.²⁵

«Skarabey» alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o'quv jamoalarida qo'llanilishi mumkin.

Ta'limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

²⁵ Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

- o'z galar fikriga hurmat;
- jamoa bilan ishlash mahorati;
- faollik;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- imkoniyatlarini ko'rsatish ehtiyoji;
- o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- «men»ligini ifodalashga imkon beradi;
- o'z faoliyati natijalariga mahsullik va qiziqish uyg'otadi.

Asosiy tushunchalari quyidagilar:

Assotsiatsiya-mantiqiy bog'liqlik bo'lib, sezgilar, tasavvurlar, idrok qilish, g'oyalar va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir.

Zanjirlash (muayyan tartib) - ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash.

Izoh: Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni `aytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

Stil va stil g'oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan «Klaster» metodi `uxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.

Izoh: Boshlangich ta'limning 3-4 sinf darslarida qo'llash tavsiya etiladi. Bu metodda o'quvchilar bir so'zni atroflicha izoxlab berishga, uning bir necha variantlarini to'ishda foydalaniladi.

«Kubiklar»

Kubiklar - mavjud bo'lgan istiqbol orqali u yoki bu mavzuni ko'rib chiqishga imkon yaratuvchi uslub. Bunda fikrlash uchun turli yo'l-yo'riqlar qo'llaniladi.

Kubiklar 6 tomonli 15-20 sm:

1. Buni tariflang.
2. Buni taqqoslang.
3. Bunga taluqli fikrlarni bog'lang.
4. Buni tahlil qiling.
5. Buni qo'llang.
6. Bunga qarshi dalil keltiring.

Amalga oshirish bosqichlari:

1. Mavzu beriladi va o'quvchilarga shu mavzu haqida har tomonlama o'ylab ko'rish, yahni `redmetni (obraz yoki biron -bir ko'rinish) batafsil (rangi, shakli, belgilari va hokazolarni) ko'rib chiqish taklif etiladi.

2. O'quvchilar orqama-ketin quyidagi to'shiriqni bajarishadi.

- Buni tahriflang (`redmetning, hodisaning tashqi ko'rinishini tahriflash)

- Buni taqqoslang (u nimaga o'xshaydi, nimadan nimasi bilan farq qiladi)

- Bunga taluqli fikrlarni bog'lang (u nima haqida o'ylashga majbo'r qiladi, qanday ko'rinishlar ko'z oldiga keladi. Tasavvurlaringizga erkinlik bering, bu nimalarga o'xshaydi va nimalardan farq qiladi)

- Buni tahlil qiling (`redmetning, xodisaning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating)

- Buni qo'llang (yahni buni qanday qo'llash mumkin, bu `redmet, hodisa xaqidagi bilimlarni qachon va qaerda qo'llash mumkin)

○ Hodisa, `redmet uchun yoki unga qarshi dalillar keltiring (yahni faqatgina tahrif bermay, buning uchun yoki unga qarshi ishontiruvchi dalil to`ish kerak)

3. O`quvchilar bu yozma ishni bajarganlaridan so`ng, kubikning har bir tomoniga talluqli javoblari bo`yicha sheriklari bilan yoki guruhlarda (agar bu ish guruhlarda bajarilgan bo`lsa) fikr almashadilar (agar juftlikda bajarilgan bo`lsa).

4 .Javoblar xohishga ko`ra sherik nomidan yoki guruh nomidan o`qiladi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun guruh va mavzuga qarab, kubikning mos keladigan uch tomonini qo`llash mumkin. Albatta savollar to`shiriqlarga mos qilib tuziladi.

- bu qanday ko`rinishga ega?
- bu nimaga o`xshaydi va nimadan farq qiladi?
- (taqqoslang)
- yana nima haqda o`ylab ko`rish mumkin? (bunga talluqli fikrlarni bog`lang)
- bu nimadan yasalgan? (tahlil qiling)
- uni qanday qo`llash mumkin?
- u yaxshimi yoki yomon (uning uchun yoki unga qarshi dalillar keltiring)

Kubik bilan ishlaganda tartibga rioya qilish kerak (masalan, asar qaxramonlari asarni o`qigandan so`ng tariflanadi).

Kubiklarni refleksiya bosqichida qo`llash mumkin.

O`quvchilar mahlum darajada bilimga ega ekanligiga ishonch xosil qilgandan so`ng, mos keladigan mavzu tanlanadi.

Kubik bilan ishlaganda o`quvchilar bir-birlariga halaqit bermasliklari kerak²⁶.

²⁶ Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

Izoh: Ushbu metoddan har bir o`quvchiga alohida o`z fikrini ifoda etadi. Bunda mavzu beriladi va o`quvchilarga shu mavzu haqida har tomonlama o`ylab ko`rish, yahni `redmetni (obraz yoki biron -bir ko`rinish) batafsil (rangi, shakli, belgilari va hokazolarni ) ko`rib chiqish taklif etiladi.

«Sinkveyn»

Sinkveyn-berilgan mavzu bo`yicha bir necha so`z orqali o`quv matnini bayon qilish mumkin bo`lgan usul. Bu o`ziga xos o`tilayotgan mavzu bo`yicha ma'lumotlarni o`z ichiga olgan besh misradan iborat qofiyasiz shehr.

Maqsad: mavzuni mukammal o`rganishga erishish

Amalga oshirish bosqichlari

1.O`quvchilarni sinkveyn tuzish qoidalari bilan tanishtiramiz.

2.Shu qoidalarga asoslanib, ma'lum bir mavzuda sinkveyn tuzishni taklif etamiz.

3.Hamma sinkveyn tuzganiga ishonch hosil qilgandan so`ng, xohishga ko`ra o`qiladi.

Sinkveyn tuzish qoidalari:

- birinchi qatorda bir so`z bilan mavzu belgilanadi (ot so`z turkumidan)
- ikkinchi qatorda mavzu ikki so`z bilan tahriflanadi (sifat)
- uchinchi qator-shu mavzu ichida harakatni uch so`z bilan tahriflash (fehl, ravishdosh)
- to`rtinchi qator-mavzuga munosabatni bildiruvchi to`rt so`zli (turli so`z turkumlaridan) misra xosil qilish
- beshinchi qator-bir so`z yoritilayotgan mavzuni sinonimi tanlanadi.

Namuna:

Izoh: Ushbu metoddan boshlang'ich sinflarning 3-4-sinflarida foydalaniladi. Bu metod orqali o'quvchilarni fikrlar qobiliyatlari o'sadi, besh qator shehriy qofiya yaratiladi. Bundan ona tili, o'qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslarida qo'llash mumkin.

«Zinama-zina» o'yini

«Zinama-zina» o'yinini o'tkazish uchun o'qituvchi o'quvchilarga rangli kartochkalar yordamida teng sonli kichik guruhlariga ajratadi. Har bir kichik guruh uchun sardorlar tayyorlanadi. Sardorlar o'yin savollarini olib, o'quvchilarga birma-bir berib boradi. Agar guruh 6 ta o'quvchidan tashkil to'gan bo'lsa, xar bir o'quvchi 5 ta savolga javob berishi lozim. Savollar yonida to'g'ri javob yozilganligi sababli guruh sardorlari o'quvchilarning javoblarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilar har bir to'g'ri javob uchun bir balldan to'lab jami 5 ballgacha ball to'lashi mumkin.²⁷ Shundan so'ng, o'qituvchi o'quvchilarning to'lagan baliga qarab qayta guruhlaydi. Har bir guruh o'zlarining iqtidoriga qarab turli xildagi to'shiriqlarni beradi. O'quvchilar bu to'shiriqlarni bajarib bo'lgandan so'ng, o'zaro savol javob o'tkazadilar har bir guruh o'z to'shiriqlarini ko'rgazmali qurollar asosida bayon etadi. To'shiriqni mukammal bajargan kichik guruhlar rag'batlantiriladi va g'oliblar aniqlanadi.

Izoh: Ushbu metoddan 1-4-sinflarning barcha darslarida qo'llash mumkin. Kichik guruhlarining har bir a'zosi berilgan har bir savolga javob beradilar va har bir to'g'ri javob uchun bir balldan to'lab jami 5 ballgacha ball to'lashi mumkin, so'ng o'quvchilarning to'lagan baliga qarab qayta guruhlanadi. Har bir guruhga o'zlarining iqtidoriga qarab


²⁷ Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

turli xildagi to'shiriqlarni beriladi. O'quvchilar bu to'shiriqlarni bajarib bo'lganlaridan so'ng, o'zaro savol javoblar o'tkaziladi.

“Baliq skeleti” texnologiyasi

Ushbu texnologiya baliq modeli chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o'quvchilar o'rta tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga yechilishi kerak bo'lgan muammo yoziladi. pastki qismiga muammoni hal etilish yo'llari yozib boriladi. Bu usul orqali biz o'quvchilarni mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o'rgatamiz. Har qanday muammolarni yechishning bir qancha variantlarini to'ish mumkinligi haqidagi bilim, ko'nikma va malakaga erishishlarini ta'dqiqalaymiz. Masalan yo'l harakati darslarida “Yo'l qoidalar” mavzusida “svetofo nima uchun kerak?” muammosi qo'yilsa, bolalar o'z fikrlari bilan baliq skeletini boyitib boradilar.

Svetofo nima uchun kerak?



O'quvchilar baliqning har bir skeletiga svetofo nima uchun kerakligini yozib boradilar. “Yo'lovchilarga yo'ldan o'tib olishlari uchun”, “Trans'ortlarning ko'cha tartibi qoidasini saqlashlari uchun” “Halokatlarni oldini olish uchun”, “Yo'l `atrul xizmatchilarining ishini bir muncha osonlashtirish uchun”, “Yo'l qoidalariga amal qilish uchun”, “Katta ko'chalarda mashinalar tartibini boshqarish uchun” va hakazo.

Izoh: Ushbu metoddan boshlang`ich sinflarning barcha darslarida foydalaniladi. Har bir mavzuga moslashtirish mumkin. Bunda o`quvchilar oo`rtaga tashlagan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning te`a qismiga yechilishi kerak bo`lgan muammo yoziladi. `astki qismiga muammoni hal etilish yo`llari yozib boriladi. Bu usul orqali biz o`quvchilarni mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o`rgatamiz. Har qanday muammolarni yechishning bir qancha variantlarini to`ish mumkinligi haqidagi bilim, ko`nikma va malakaga erishishlarini tahminlaydi.

“Yelpig`ich”

Bu texnologiya murakkab va ko``tarmoqli bo`lib, muammoli mavzularni o`rganishga qaratilgan.²⁸


Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo`yicha bir yo`la axborot beriladi. Ayni `aytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.²⁹

**“Yelpig`ich”** texnologiyasi mavzuni o`rganishning turli bosqichlarida:

- boshida o`z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o`rganish jarayonida uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;
- yakunlash bosqichida- olingan bilimlarni tartibga solishda qo`llanilishi mumkin.

²⁸ Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

²⁹ Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.



Izoh: Ushbu metoddan boshlang'ich sinflarning barcha darslarida foydalaniladi. Har bir mavzuga moslashtirish mumkin. Bunda o`quvchilar o`rtaga tashlagan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Bu interfaol texnologiya o`quvchilarga tanqidiy, tahliliy va aniq mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o`z fikrlarini yozma va og`zaki shaklda ixcham bayon etish, shuningdek uni himoya qilishga imkon yaratadi

Charxpalak texnologiyasi

Ushbu texnologiya o`quvchilarni o`tilgan mavzularni yodga olishga mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to`g`ri javob berishga va o`z-o`zini baholashga, o`rgatishga va qisqa vaqt ichida o`qituvchi tomonidan barcha o`quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Texnologiyaning maqsadi: o`quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlashga, o`z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o`zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko`p fikrlardan kerakligini tanlab olishga o`rgatish.

O`tkazish tartibi: O`quv mashg`ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida, yana o`quv `redmetining biron–bir bo`limi tugallanganda, o`tilgan mavzularni o`quvchilar tomonidan o`zlashtirganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo`ljallangan.³⁰

- ✓ O`quvchilar guruhlariga ajratiladi.
- ✓ Tarqatma materiallar tarqatiladi.
- ✓ Har bir guruh a`zosi o`zi ishlagan tarqatma materialining o`ng burchagiga guruh raqamini yozadi, cha` burchagiga esa o`zining biror bir belgisini chizib qo`yadi.
- ✓ Vaqt belgilanadi vazifa bajariladi.
- ✓ Vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga “Charx`alak aylanmasi” yo`nalishida almashtiriladi.
- ✓ Yangi guruh a`zolari tomonidan berilgan materiallar o`rganiladi va o`zgartirishlar kiritiladi.
- ✓ Jamoalar tomonidan o`rganilgan va o`zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo`nalish bo`yicha guruhlararo almashtiriladi.
- ✓ Materiallarni oxirgi almashishdan so`ng har bir guruh a`zosi o`zlari ilk bor to`ldirgan materiallarni tanlab oladilar.
- ✓ Har bir guruh a`zosining o`zlari belgilangan javoblariga boshqa guruh a`zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar.
- ✓ Har bir o`quvchi to`g`ri javob bilan belgilangan javoblar farqini aniqlaydilar, o`z-o`zini baholaydilar.

“Charxpalak” metodi. “Charxpalak” metodini o`tkazish uchun ishtirokchilar 5 ta kichik guruhga bo`lib olinadi. Guruhlarga ishtirokchilarni mavzular asosida bo`lish mumkin. Buning uchun varaqaga mavzu yozilib, qatnashchilarga tarqatiladi, qatnashchi qaysi mavzuni olsa, o`sha mavzu yozilgan guruhga borib o`tiradi.


³⁰ Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

O'tkazish tartibi. 1-bosqich. Har bir guruhga tarmoqlashga mo'ljallab yozilgan to'shiriqlar tarqatiladi.

2-bosqich. Aniq vaqt belgilanadi. Guruhlar maslahatlashib javob yozadilar.

3-bosqich. Guruhlar to'shiriqlarni charx'alak usulida almashadilar. Shu tariqa har bir guruh kamida 5 ta fikr yozadi.

4-bosqich. Taqdimot. Har bir guruh o'z ishini sharhlab beradi.



5-bosqich. Tashkilotchi javoblarni sharhlaydi. Quyidagi namuna asosida o'qish fanidan material tayyorlang.

Izoh: Ushbu metoddan boshlang'ich sinflarning barcha darslarida foydalaniladi. Har bir mavzuga moslashtirish mumkin. Bunda o'quvchilar o'rta tashlagan mavzular yuzasidan muayyan bilimlarni olish imkonini beradi. Guruhlarda berilgan mavzular yuzasidan olgan bilimlarini har tomonlama rivojlantirib berishga imkoniyat tug'iladi.³¹

GAP BO LAKLARI

19- mashq. She'rni ifodali o'qing. Lining qaysi diyor haqida ekanini ayting. She'rni yoddan yozing.

³¹ Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

Bunda **bulbul** kitob **o'qiydi**,
Bunda **qurtlar** ipak **to'qiydi**.
Bunda **ari** **keltiradi** bol,
Bunda **qushlar** **topadi** iqbol.
Bunda qorning taglarida **qish** Bahor uchun
so'ylaydi olqish.

Hamid Olimjon

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. Ularning qaysi gap bo'lagi ekanini aniqlang.

O'qiydi, keltiradi, topadi, so'ylaydi so'zlari qanday ma'noda qo'llangan?

Taqqoslang: *o'quvchi o'qiydi* — *bulbul o'qiydi*. So'zlar gapda qanday ma'nolarda qo'llanadi?

iqbol — baxtli taqdir, baxt, omad **olqish** — maqtash,

ulug'lash

20- mashq. Matnni o'qing.

Bog'da chiroyli kapalak guldan gulga qo'nardi. Karim- jon do'ppisini uning ustiga otib tutib oldi. Kapalak Karim- jonning barmoqlari orasida tinmay pitirlardi.

Karimjon tog'ri ish qildimi?

Gapning bosh bolaklarini aniqlang. Bosh bo'laklar qanday so'roqlarga javob bo'ladi? Matnni ko'chirib, bosh bo'laklarning tagiga chizing. Gapning ikkinchi darajali bolaklarini tushirib o'qing.



Bosh bo'laklar gap hosil qiladimi?

Gaplarning bosh bo'laklarini tushirib o'qing. Qolgan bo'laklar gap hosil qiladimi? Xulosa chiqaring. Gapning asosini qaysi bo'laklar tashkil qiladi?

Ega va kesim gapning asosini tashkil etadi,

21- mashq. She'rni ifodali o'qing. Gaplarning maqsadga ko'ra turini ayting. Oxiriga undov belgisi qo'yilgan gaplar qanday ohang bilan o'qiladi?

YAXSHI NIYAT

— Sening jajji yuragingda Olam orzu ovozi,

Yaxshi niyat o'lmaydi hech,

Yuksak bo'lur parvozi.

O'g'lim xursand. So'zlar shodon:

— Yaxshi niyat o'lmaydi!

Yashasin-ay,

Yashasin-ay,
Endi urush bo'lmaydi!
Habib Rahmat

Ajratib ko'rsatilgan gaplarni ko'chiring. Bosh bo'laklarning tagiga chizing.

22- **mashq.** She’rni qiroat bilan oqing. Bolalar paxtam nimaiarga oxshatishgan⁹

INSHOLARDAN KOCHIRMALAR

Barno debdi: „Paxtamiz Momiq
parga o‘xshaydi“.
Ra no debdi: „Paxtamiz Xuddi
zarga o‘xshaydi“
Uni oppoq bulutga Qiyos qilibdi
Davron,
Muzqaymoqning o'zi u,
Debdi hazilkash Omon.
Kimdir „Paxta— non“ debdi,
Kim yozibdi „kunduz“ deb.
„Tunda Oy terimchi-yu Loppi
paxta — yulduz“ deb.
Inshosini shundayin Tugatibdi
Shouzoq:
„Asl[paxta qordekmas,
Dadamning sochidek oq“.

Abdurahmon Akbar

Barnoning gapini ko'chiring. So roqlar yordamida gapning bosh
bo'laklarini amqlang. Tagiga tegshhicha chizing.
Siz paxtani nimaga o xshatgingiz keladi?

Bitta gap bilan yozing. Yozgan gapingizdagi bosh bo laklarni anialang



HiKmatlami o qing. Gaplar qanday mazmun biidiryapti? **Siz**

ilmli kishilarni uluglang.


Siz rostgo y bo'ling va noma qul so zni so‘zlamang.

Husayn Hofiziy

Gaplami ko chiring. So roqlar yordamida gapning bosh va ikkinchi
darajaii botaklarini aniqlab, tagiga tegishhicha chizing.



24- mashq. Shartli belgilarga mos keiadigan gapiarm o'rmga qo'yib oqmg.



Qo'yish uchun gaplar:

*Men o'ziinning fikrimni aytmoqchiman.
Kecha majlisda Akmal, Ikrom qatnashdi.
Konstitutsiyamiz necha bobdan iborat?*

Gaplar qanday bolaklardan tuzilgan?

Gapdagi ikkinchi darajali bo'laklarni sotoqlar yordamida aniqlang va tagiga chizmg.

Konstitutsiya — Davlatimizning asosiy qonunlari majrnuyi to'plami

25- mashq O'qing. Matndagi gaplar qanday mazmun bildiriyapti? Sc roqlar yordamida gapning bosh va ikkinchi darajali bo laklarini aniqlang.

GULLAR KECHASI UXLAYDIMI?

Gullar kun bo'yi quyoshning nurlaridan oziqlanadi. Gullar kechasi **ko'zlarini** yummaydi. Gullar quyoshsiz o'smaydi. Ular ham tunda **ishlamaydi**.

Ayting-chi, gullar tunda uxlaydimi yoki yo qmi?

(,Mo'jiza kitobi"dan)

Matnni ko'chiring. Gaplardagi ikkinchi darajali bolaklarni tushirib, matnm qayta o'ing. Gapning mazmunida qanday o'zgarish yuz berdi?

Qaysi gapda mazmun to'liq ifodalangan? Ajratilgan so'zlar qanday ma'noda qo'llangan?

26- mashq. Ega va kesimdan tuziigan gaplarga ikkinchi darajali bo'lak qo'shib yozing. Bunda berilgan so'zlardan foydalaning.

I ____ kuz ____ yoydi.

I ____ shudring tushdi.

I ____ mevasi qizardi. **Qo'yish uchun so'zlar** na'mataklarning; maysalarning bargiga; oltin, o'zining sepin.

Qaysi gapning mazmuni to'liq ifodalangan?

Boshlang'ich sinflarda interfaol usullar orqali darslarni tashkil etish. Darsning texnologik xaritasi. (1 soat) 4-sinf .Ona tili

Asosiy tayanch tushunchalar: gap bo'laklari, ikkinchi darajali bo'laklar

Dars loyihasini ishlab chiqish (darsning texnologik xaritasi)

Mavzu	Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlaridan dars ishlanmasi yaratish. Darsning texnologik xaritasi	
Darsning maqsadi va vazifalari	O'quv jarayonini tashkil etish, darsga tayyorgarlik ko'rish. Dars ishlanmasini tayyorlash. Dars mavzusi va rejasi. Darsning texnologik xaritasini yaratish.	
Dars mazmuni	Dars jarayonida tinglovchilarda boshlang'ich sinf o'quv fanlaridan dars ishlanmasi yaratishni yangi usullarini hamda, darsning texnologik xaritasini tuzishni o'rganadilar va tajriba almashadilar.	
O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi	<u>Shakl:</u>savol-javob, suhbat, <u>Metod:</u> “Tushunchalar tahlili” <u>Vosita:</u> tarqatma materiallar, slayd qog'oz, marker, yelim, skotch va boshqalar <u>Usul:</u>og'zaki, yozma, ko'rgazmali, taqdimot,kichik guruhlariga bo'lish. <u>Nazorat:</u> test savollari va javoblari <u>Baholash:</u> individual baholash, o'z o'zini baholash, guruh ishini baholash	
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi	Tinglovchi
	• Yangi nazariy bilimlar beradi. • Dars jarayonini maqsadli va	• Matn ustida ishlash orqali yangi bilimlar o'zlashtiriladi.

	oqilona boshqaradi. • Tinglovchilarga dars ishlanmasi yaratish va darsning texnologik xaritasini tuzishni o'rgatadi. beradi. • Tinglovchilarga boshlang'ich sinf darslariga ishlanma yaratishni hamda, darsning texnologik xaritasini slayd orqali tushuntiradi. • Doimiy nazorat qiladi va adolatli baholaydi. • Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumot to'plashga yo'naltiradi. • Tinglovchilarga texnologik xarita tushunchasi uning ta'riflarini tinglovchilar "Tushunchalar tahlili" metodi orqali bajarishadi. • Tinglovchilarni ijodiy faoliyatga qiziqish uyg'otadi.	• Axborot izlash, to'plash va foydalanish ko'nikmalari shakllanadi. • Olingan bilimlarni tizimli bayon etadi. • Mustahkamlaydi va o'z o'zini baholaydi hamda o'zgalar faoliyatini tahlil qiladi. • Yakka tartibda va kichik guruhda ishlash ko'nikmasi hosil bo'ladi. • Matn asosida mustaqil, mantiqiy, asosli faktlarni ajratib olish ko'nikmalari shakllanadi. • Kichik ilmiy tadqiqot olib borish yo'llari haqida ma'lumot oladi.
Kelgusidagi rejalalar	O'z ustida ishlash. Mavzuni hayot bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. Yangi pedagogik texnologiyani takomillashtirish.	O'z ustida mustaqil ishlash. O'z fikrini ravon bayon qiladi. Mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. Guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini

		hosil qiladi.
--	--	---------------

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda yosh avlodga chuqur bilim beridagin, fikrlash doirasi keng, kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan, huquqiy demokratik jamiyat a'zolarini ozod va erkin yashashga, mustaqil fikr yuritishga o'rgata oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifa qilib belgilangan. "Ilgari biror bir mamlakatning taraqqiyoti va kuch-qudratini ifodalash va baholash uchun uning mavjud bo'lgan tabiiy boyliklari va iqtisodiy salohiyati haqida so'z yuritilar edi. Bugun dunyo taraqqiyotning shunday bosqichiga qadam qo'ydi, har qanday millat va davlat imkoniyatlarining hal qiluvchi belgisi- bu ma'rifat, insonlarning intellektual, kasbiy va ma'naviy salohiyatidir"- deb ta'kidlaydi prezidentimiz I.A.Karimov.

Umumta'lim maktablarida interfaol usullarni qo'llash, ta'lim sifati va samaradorligini ko'tarish, darslarda o'quvchilar faolligini oshirish, takomillashtirilgan standart va modernizatsiya qilingan dasturlarni o'zlashtirishni kafolatlash, o'quvchini faollikka, erkin fikr yuritishga o'rgatish, o'z nuqtai nazarini himoya qilishga erishtirish uchun nima qilmoq, qanday choralar ko'rmoq kerak? Faollik o'zi nima?

Faollik- bir maqsad yo'lida aqliy, jismoniy va boshqa harakatlarni tez va unumli amalga oshirishga intilish.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun o'qituvchi faoliyatini innovatsion asosda qayta ko'rib chiqish hamda interfaol ta'limni yo'lga qo'yish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish- pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida o'qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish paydo bo'ldi.

Davlat ta'lim standartlarini to'la o'zlashtirilishini kafolatlash shu kundagi eng dolzarb, kechiktirib bo'lmaz vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Takomillashtirilgan standartlar va yangi o'quv dasturlari boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarning erkin fikr yuritish orqali muloqotga kirisha olish qobiliyatini shakllantirish, so'z boyligini oshirish, o'qish texnikasini yaxshi egallash, chiroyli va savodli yozish ko'nikmalarini hosil qilish, nutq madaniyatini yuksaltirishga e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Shu bois ham ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish, liberallashtirish (erkinlashtirish), demokratlashtirish, bolaga samimiy va do'stona munosabatda bo'lish, hamkorlik va hamijodkorlik ruhidagi ta'lim jarayonini tashkil etish zamonaviy talablardan hisoblanadi. Bunda o'quv jarayoni markazida o'quvchi shaxsi turishi, o'quv jarayoni o'quvchining shaxsiy hamda ma'naviy- axloqiy sifatlarini yuksaltirishga qaratilgan bo'lishi talab etiladi.

Darsni insonparvarlashtirish:

Hamkorlik;

O'quvchiga g'amxo'rlik;

O'quvchini hurmat qilish;

E'zozlash;

Kechirimli bo'lish;

O'z – o'zini rivojlantirishga muhit yaratish;

Psixologik sog'lom muhit yaratish;

Ijodiy muhit;

Do'stona munosabatda ish yuritish;

O'quvchini extiyoji, qiziqishi, shaxsiy fazilati, iqtidorini, ichki imkoniyatlarini ishga solish.

Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarining o'quv jarayoniga o'qllanilishi tushuniladi. Interfaollik bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni o'quv – biluv jarayoni o'zaro suhbat tarqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'quvchi – o'qituvchining o'zaro muloqati asosida kechadi.

Interfaol metodlar – shunday metodlarki, u o‘quvchilarning o‘zaro muloqat va o‘zaro ta’siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usuldir.³²

“**Interaktiv**” so‘zi ingliz tilidan olingan “Interakt”, ya’ni “Inter” – o‘zaro, “akt” – harakat, ta’sir, faollik ma’nolarini beradi.

Interfaol usullardagi darslar o‘quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni o‘zaro faollikda hal etishga, o‘z fikrini erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlik, hamjixatlikda ish yuritishga, fikrni mantiqan yozma ravishda bayon etishga chorlaydi.

Interfaol metodlarda ish yuritish, an’anaviy usullardan voz kechish degani emas. Balki ta’lim mazmunini o‘zaro faollikda hal eta olish demakdir.

Interfaol ta’lim jarayonida dars o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu usullarni qo‘llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari- norasmiy bahs- munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o‘qish, o‘rganish, seminarlar o‘tkazish, o‘quvchilarning tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratish, kichik guruh, kattta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat.

Interfaollik bu ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro faolligi, ya’ni bunda o‘quv- biluv jarayoni o‘zaro suhbat, dialog, savol- javob, muhokama, munozara shakllarida yoki o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik, ya’ni o‘zaro faollik, fikrlar almashish, tegishli o‘quv harakatlarini, o‘zaro ta’sirlashuvni amalga oshirish, o‘quvchi- o‘qituvchi, o‘quvchi- o‘quvchi suhbatlarida sodir bo‘ladi.

Interfaol metodlarning bosh maqsadi- o‘quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o‘quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritishiga, uning ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o‘quvchi chetda qolmay, eshitgan, o‘qigan, ko‘rgan, bilgan fikr -

³² Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

mulohazalarini ochiq- oydin bildirish, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o‘zaro do‘stona munosabatlar shakllanadi.

O‘quvchilarning muhim tarkibiga ega bo‘lgani va sinf deb atalgan guruhi aniq maqsadni ko‘zlab belgilangan vaqtda o‘qituvchi rahbarligida o‘quv jarayonining tashkil etilishi **dars** deb

ataladi.

Dars jarayoni samaradorligi o‘qituvchining darsga puxta tayyorlanish bilan belgilanadi. E’tiborsizlik bilan rejalashtirilgan va puxta tayyorlanmagan, o‘quvchilar imkoniyatlari bilan uyg‘unlashmagan dars samarasiz bo‘lishi mumkin. SHuning uchun birinchi navbatda har qanday o‘qituvchi darsga puxta tayyorgarlik ko‘rishi lozim.

Darsga tayyorlanish bu - bir butun dars loyihasini tizimli ketma-ketligini ishlab chiqish bo‘lib, ayni paytda pirovard natijasini ta’minlaydigan o‘quv-tarbiya jarayonidir.

O‘qituvchining darsga tayyorgarligi quyidagicha olib boriladi:

1. O‘qituvchining o‘z fani yuzasidan umumiy tayyorgarligi.
2. O‘qituvchining har bir darsga kundalik tayyorgarligi.

O‘qituvchining umumiy tayyorgarligi o‘quv yili boshlanishi oldidan va yillar davomida amalga oshiriladi. Tayyorgarlik ko‘rishda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

- o‘quv yili boshlanishiga qadar o‘quv dasturini o‘rganish, tushuntirish xatini qaytadan o‘qib chiqish, mavzu bo‘yicha qo‘yilgai Davlat ta’lim standart talablarini o‘rganib chiqish, o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni aniqlash kabi vazifalarini belgilab olish;
- fanga oid ilmiy, metodik va ilmiy-ommabop adabiyotlarning mazmuni bilan tanishish;
- fanga oid yangi nashr qilingan ko‘rgazma materiallarni, o‘quv tajriba jihozlarni o‘rganish;
- ilg‘or o‘qituvchilarning ish tajribalarini o‘rganish, tahlil qilish va o‘z ustida ishlash orqali bilimini kengaytirish;

- o‘z fani sohasida ma’lumotlarni to‘plash, muammoli masala va topshiriqlarni, test materiallarini jamlashdan iboratdir.

O‘qituvchining umumiy tayyorgarligi uning fan bo‘yicha tuzgan taqvim-mavzu rejasida aks etadi. Taqvim-mavzu reja fan o‘qituvchisi tomonidan tuzilib, metodbirlashma yig‘ilishida muhokama qilinadi, ma’qullangandan so‘ng ma’muriyat tomonidan tasdiqlanadi.

O‘qituvchining har bir darsga kundalik tayyorgarligi. O‘qituvchining har bir darsga sifatli tayyorlanishi darsni tashkil etish, o‘quvchilarga beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni qay darajada o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Darsga tayyorlanish algoritmi (qoidalar majmui) barcha omillar, holatlarni hisobga olish va kafolatlaydigan izchil tadbir bo‘lishi zarur. SHuning uchun har bir darsga tayyorlanishda quyidagi tavsiyalarga rioya qilishi lozim.

Darsga tayyorlanishdan oldin quyidagilarga e’tiborni qaratishi zarur:

Darsda o‘quvchi shaxsini rivojlantirish uchun avvalo, uning idrokini, xotirasini kuchaytirish asosida o‘quv materialining xotirada saqlanishini ta’minlash zarur. Darsning maqsadiga erishish uchun o‘quv materiallarini to‘g‘ri tanlash, bunda - o‘quvchilarning bilim saviyasini hisobga olish va darsni jihozlashga jiddiy e’tibor berish, o‘quv materiallar o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun ta’limning metod va usullarini o‘rinli qo‘llash ham muhimdir. Dars o‘qituvchiga juda katta mas’uliyat yuklaydi. SHunga ko‘ra, atroflicha tayyorlanish tajribali o‘qituvchi uchun ham yosh o‘qituvchi uchun ham zarur. O‘qituvchi o‘z vazifasini sifatli bajara olishi uchun o‘quvchilar shaxsini har tomonlama o‘rganishi shart. O‘quvchi shaxsini o‘rganish oddiygina tadbir emas, balki ta’lim-tarbiyadan ko‘zlangan maqsadga erishishning eng muhim yo‘lidir.

SHuning uchun birinchi navbatda sinf jamoasining o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olish lozim:

- o‘quvchilarning bilimi va o‘zlashtirish saviyasi;
- o‘quvchilarning fanga bo‘lgan munosabati;
- sinfning ishlash tezligi;
- bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanganligi;

- har xil turdagi o‘quv jarayoniga munosabati;
- o‘quvchilarning intizomi.

Ikkinchi navbatda esa har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini e‘tiborga olish zarur:

- nerv tizimi turlarining shakllanganlik darajasi;
- o‘zaro fikr almashuvi;
- hissiyotga beriluvchanlik;
- materialni o‘quvchilar tomonidan qabul qilishni boshqarish;
- yomon kayfiyatni tarqatish yo‘llarini bilish;
- o‘zining bilim va qobiliyatiga ishonish;
- xar xil ta’lim vositalaridan foydalanishni bilish (O‘TV, AKT).

O‘qituvchi oldida turgan vazifalardan biri o‘quvchilarga beriladigan ta’lim va tarbiya sifatini oshirish, uni yanada rivojlantirish va yuqori bosqichga ko‘tarish talab qilinadi. Demak, o‘qituvchi har bir darsni rejalashtirganda darsni puxta o‘tkazilishini ta’minlash uchun talab darajasida dars ishlanmasini batafsil tuzishi, aniq vaziyatni e‘tiborga olib darslarni turli xil shaklda o‘tkazishi lozim.³³

O‘qituvchi tomonidan kundalik darsga tayyorgarlik quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi zarur:

- taqvim-mavzu reja asosida dars mavzusini, maqsad va vazifalarni, dars shakli va turlarini tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash;
- o‘quvchi darsda bilib olishi va eslab qolishi zarur bo‘lgan asosiy mazmunni ajratib olish;
- darsning strukturasi, turi, metodlari va o‘qitish usullarini belgilab olish;
- fanlararo bog‘lanishni aniqlash va undan darsda foydalanish yo‘llarini belgilab olish;
- o‘qituvchi va o‘quvchilarning darsdagi faoliyatlarini rejalashtirish;
- darsning didaktik vositalarini tanlash (rasmlar, tarqatma materiallar, jadvallar, chizmalar va boshqalar);

³³ Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

- o‘quvchilarning darsdagi mustaqil faoliyatlari hajmini belgilab olish;
- darsda olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash usul va shakllarini belgilab olish;
- uy vazifasining hajmini belgilab olish;
- darsni yakunlash shakllarini belgilab olish;
- belgilangan talablar asosida darsning ishlanmasini yozish.

2.Dars ishlanmasini tayyorlash.

Har bir dars:

- ma’lum bir maqsadni amalga oshirilishiga qaratilishi va puxta rejalashtirilgan bo‘lishi;
- mustahkam ma’naviy-ma’rifiy jihatdan tarbiyaviy yo‘nalishga ega bo‘lishi;
- turmush va amaliyot bilan bog‘langan bo‘lishi;
- xilma-xil metod va usullardan, vositalardan keng va unumli hamda o‘rinli foydalangan holda olib borilishi;
- o‘quvchilarni qunt bilan ishlashlarini ta’minlaydigan bo‘lishi;
- mashg‘ulotlar butun sinf bilan yoppasiga olib borish va o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlashni hisobga olgan holda amalga oshirish rejalashtirilgan bo‘lishi lozim.

Mashg‘ulotlarning muvaffaqiyatli o‘tishi ta’lim jarayonining to‘g‘ri rejalashtirishni tashkil etish va uni amalga oshirishga bog‘liqdir.

O‘quv jarayonini rejalashtirishda:

- dars mavzusini, maqsad va vazifalarni, turini, tarbiyaviy imkoniyatlarni aniqlashi;
- dars uchun kerakli ko‘rgazmali qurollar, didaktik materiallar va zarur jihozlarni tayyorlashi;
- darsning vazifasi asosida uning har bir qismi uchun zarur bo‘lgan materiallar, faktlar, misollar, mashqlar kabilarni tanlashi;
- ta’limning metod va usullarini tanlash;

- o‘quvchilar uchun mustaqil va uyda bajaradigan vazifalarini belgilashi;
- ko‘nikma va malakalarini baholashning aniq mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg‘ulotga ajratilgai vaqt ichida ularni to‘g‘ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg‘unlashuviga z‘tiborni qaratishi lozim.

Bularning barchasi dars ishlanmasida yoki darsning texnologik xaritasida o‘z ifodasini topadi.

Dars ishlanmasi (darsning texnologik xaritasi) o‘qituvchi uchun tuzilish majburiy bo‘lgan hujjatdir. Uni tuzishdai ko‘zlangan asosiy maqsad -o‘qituvchining va o‘quvchining dars jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, dars mazmunini yoritib borish, ta’lim samaradorligini oshirishdan iborat.

Dars ishlanmalari uchun tayyor qolip yo‘q, chunki jonli dars jarayonini hech qanday qolipga solib bo‘lmaydi. Dars ma’lum bir maqsadga qaratilgan, DTS talablari asosida o‘quvchilarga bilim, ko‘nikma va malaka berish natijasini aniq belgilab olgan holda o‘qituvchining mahorati, o‘quvchilarning tayyorgarligi darajasi asosida rejalashtiriladi.

3. Dars mavzusi va rejasi

Dars mavzusi (taqvim-mavzu reja asosida belgilanadi)

Dars maqsadi:

Ta’limiy- o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini qanday rivojlantirish, shakllantirish ko‘zda tutilgan holda belgilash.

Tarbiyaviy- shaxsning qanday sifatleri shakllantirilishi ko‘rsatish.

Rivojlantiruvchi- o‘quvchilar aqliy faoliyat shakllarini va logik jarayonlarni o‘zlashtiradilar va bu qanday rivojlantiruvchi natija berishini ifodalash.

Dars turi: taqvim-mavzu reja bo‘yicha darsning turi ko‘rsatiladi

O‘qitish metodlari: metodlar, usullar ko‘rsatiladi.

Dars jihozi: O‘TV, ko‘rgazmali kurollar, ma’lumotlar manbai, o‘qitishning didaktik vositalari tanlanadi.

Tayanch tushunchalar.

Materialni o‘zlashtirilishi uchun yordam beradigan tayanch bilimlarning muhimlarini ajratishga, o‘quvchilarning mustaqil ishlarini rejalashtirishga,

o'qitishda motivatsiyani shakllantirish yo'llariga, fanga bo'lgan qiziqish, fanga tegishli bo'lgan tarixiy ma'lumotlar berish, amaliy ahamiyati, o'ziga xos savollarning ko'rinishi, masalalarning yangicha ifoda qilinishi, muammoli vaziyat yaratish; ishjarayonida nazorat shaklini belgilash, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zaro nazorat, teskari aloqani o'rnatish shakllari uchun vaqt ko'rsatiladi.

Yangi tushunchalar va harakat usullarini shakllantirish

O'rganilishi lozim bo'lgan yangi tushunchalar va ularni o'zlashtirish usullarini ko'rsatish, DTS talablari asosida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi dars uchun bilimlarni kengaytirilishi va chuqurlashtirilishini ko'rsatish; bilimni o'zlashtirish bosqichida bilish faoliyati usullarini shakllantirish; mustaqil ish turini aniqlash, fanlararo bog'lanishni tashkil qilish usullarini belgilash, individual topshiriqlarni bajarish uchun (kartochkalar, muammoli va ma'lumotli savollar) didaktik materiallarni belgilab olish.³⁴

Qo'llash (ko'nikma va malakalarni shakllantirish)

Shakllantirilishi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalar aniq ko'rsatiladi, masalan, savolni to'g'ri qo'yish malakasi, sababini aniqlash, tasniflash, taqqoslash; teskari aloqa o'rnatish usullari belgilanadi, so'ralishi lozim bo'lgan o'quvchilar ismi, shariflari ko'rsatiladi va boshqalar.

Uyga vazifa (asosiy vazifa ko'rsatiladi, takrorlash uchun savollar, ijodiy topshiriqlar, uy vazifasining hajmi sinfda bajarilgan ishning 2/3 qismidan oshmasligi kerak).

Dars ishlanma rejasining tuzilishi

Sana _____

Sinf _____

Mavzu _____

Maqsad _____

Ta'limiy _____

Tarbiyaviy _____

Rivojlantiruvchi _____

³⁴ Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

Metodlar

Jihozlash

Dars bosqichlaridagi ketma-ketlik:

Tashkiliy	Yangi bilimni o'zlashtirish
Uy vazifasini tekshirish	Bilimni mustahkamlash (yangi mavzu bo'yicha savollar tayyorlash)
Har tomonlama bilimlarini tekshirish (o'tilgan mavzular bo'yicha savollar tayyorlash)	Uy vazifasi bo'yicha axborot, yo'riqnoma
Materialni o'zlashtirishga tayyorlash	

Dars qismining mazmuni

Dars bosqichi	Vaqt	Qo'llaniladigan metod	O'quvchi faoliyati	O'qituvchi faoliyati

Demak, o'qituvchi darsni rejalashtirishda o'quvchilar bilimini mustahkamlash va oldingi darsni takrorlash, bilim va malakalarni tekshirish kerakligini esda tutishi, og'zaki va yozma ko'nikmalarini ifodalash, nutq madaniyati ustida ishlash mahoratini takomillashtirish, darsdagi materiallarni yaxshi o'rganib chiqish va o'quvchilar yodlashlari kerak bo'lgan matnlarni yoddan bilishi, masalalar shartlari va ularning javoblarini mukammal bilishi lozim. Dars - o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas, o'quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo'llarini izlaydi.

Mashg'ulotni yakunlash.

Uy vazifasi. Darsning texnologik xaritasini mustaqil tayyorlash (Tanlangan mavzular asosida o‘zlari mustaqil bajaradilar).

TAJIRIBA – SINOV ISHLARI

Tajriba-sinov ishlariga tayyorgarlik, asosan, tajriba uchun obyekt tanlash, biz tadqiq etayotgan mavzu bo'yicha tajriba va nazorat sinfi o'quvchilarining bilim darajalarini o'rganish, turli xil sinov va tekshiruvlar o'tkazish hamda natijalarni solishtirishdan iborat bo'ldi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishning nazariy qismini amaliyotga tatbiq etish maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari, asosan, uch bosqichda amalga oshirildi.

1. Tajriba-sinov ishlariga tayyorgarlik ko'rish;
2. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish;
3. Tajriba-sinov ishlarining tahlili va xulosalar chiqarish.

Tajriba-sinov uchun men obyekt sifatida Mingbuloq tuman XTMMFMTvaTE bo'limiga qarashli 10-umumta'lim maktabining 3-«A» va 3-«B» sinflarini belgilab oldim.

Mavzu: Ikkinchi darajali bo'laklar

Darsning maqsadi: ikkinchi darajali bo'laklar qo'shimchalari bilan tanishtirish, **ikkinchi darajali bo'laklar** tahlil qilish, bog'lanishli nutqni o'stirish, mustaqillikka yo'naltirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning metodi: suhbat.

Darsning jihozi: darslik va rasmlar.

Darsning borishi.

1. Darsni tashkil etish. Sinf va o'quvchilarni darsga tayyorgajl ligini kuzatish.
2. Yangi dars bayon etish. **Ikkinchi darajali bo'laklar** haqida ma'lumot. Mavzu 123-mashq asosida tushuntiriladi. Ikkinchi darajali bo'lakli gaplar avvaldan doskaga yozib qo'yiladi. O'qituvchi o'quvchilar diqqatini doskaga yozilgan gaplarga qaratadi.

123-mashq. O'qing. Matnda nechta gap borligini aniqlang.

Do'landa tog'larda o'sadi olimlar do'lanada darmon- dorilar borligini aniqladilar hozir uning mevasi va gulidan shifobaxsh dorilar tayyorlanadi

Ko'chiring. Har bir gapning oxiriga nuqta qo'ying. Bosh bo'laklarning tagiga chizing.

Nima uchun gapda boshqa so'zlar ham ishtirok etgan? Ular gapning mazmuniga qanday ta'sir ko'rsatadi?

128- mashq. Gaplarni mazmuniga mos so'zlar bilan toldirib yozing.

O'quvchilar sinfga ... keltirdilar. Akvariumda mayda... suzyapti. Suvda yashil ... o'sadi. Bolalar baliqchalarga navbat bilan

Foydalanish uchun so'zlar: *baliqchalar, akvarium, qaraydilar, o'tlar.*

Qo'yilgan so'zlarga so'roq bering, ular gapning qaysi bo'lagi vazifasida kelgan? Ikkinchi darajali bo'laklar nima uchun qollangan?

Ikkinchi darajali bo'laklarning savollari:

Qanday? Chiroyli kuylak, shirin ovqat, qizil sumka, oppoq ro'mol.

Qaysi? Shu daftar.

Nimani?Daftarni oldi, Ozodani ko'rdim, olmani yedim.

Nimaga? Daftarga bordim, qalamga bordim, ovqatga bordim.

128- mashq. Har bir qatorda berilgan so'zlardan gap tuzing.

dalalarni, g'ozapoyadan, tozaladilar, dehqonlar haydadi, yerni, traktorda, traktorchi qizg'in, borayotir, ishlar, dalalarda

Tuzgan gaplaringizni yozing. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni tegishlicha belgilang.

6. Darsni yakunlash va mustahkamlash. O'rganilgan bilimlar savol-javob yo'li bilan mustahkamlanadi.

7. Uyga vazifa: matn tuzish.

Mening onam

Mening onam-oqituvchi. Onam pazzanda. Men onamni yaxshi ko'raman. Bizga kitoblar o'qib beradilar. Biz farzandlaar doimo onamga yordam beramiz.

Tajribadan oldingi natija:


1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 3-A sinfidagi o'quvchilarning ikkinchi darajali bo'laklarni farqlash bo'yicha 4-asosda mezon ishlab chiqildi va shu mezon asosida 3-“A” sinfnig 30 nafar o'quvchilari va 3-“B” sinf 29 nafar o'quvchilari tajribada tahlil qilindi.

Ushbu holatning diagrammadagi ko'rinishi quyidagicha:

1-mezon

Me'zonlar							
3-A 30 nafar o'quvchi				3-B 29 nafar o'quvchi			
Gap bo'laklariga ajratilgan	Nima ni? so'rog'iga javob bo'luvchi so'zni toping	Qayer ga? so'rog'iga javob bo'luvchi so'zni toping	Qan day? so'rog'iga javob bo'luvchi gap	Gap bo'laklariga ajratilgan	Nima ni? so'rog'iga javob bo'luvchi so'zni toping	Qayer ga? so'rog'iga javob bo'luvchi so'zni toping	Qanday? so'rog'iga javob bo'luvchi gap
12 ta - 40 %	10 ta - 30 %	12 ta - 40 %	6 ta - 20 %	8 ta - 26 %	8 ta - 26 %	14 ta - 48 %	6 ta - 20 %

1-jadval



Fan : Ona tili

Sinf : 3- sinf

Mavzu : “Ikkinchi darajali bo’laklar”.

Vaqt: 45 minut

Dars nomi : Kitob - xazina

Maqsad: 1. O‘quvchilarning ikkinchi darajali bo’laklar haqida bilimlarini mustahkamlash

2.O‘quvchilarda so‘zlarni so‘roq yordamida gap bo’laklarga ajratish ko‘nikmasini rivojlantirish

3. O‘quvchilarda kitobga muhabbat tuyg‘usini o‘stirish.

Jihozlar : Izohda berilgan matn, izohda berilgan bitta varaqda yozilgan savollar, izohda berilgan konvert ichiga solingan so‘zlar, A-3 qog‘oz, skotch, qaychi, markerlar.

Jarayon.

1.O‘tilgan mavzularni takrorlash. (7 minut) “Xulosalash” metodi o‘tkaziladi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga savollar yozilgan varaqlarni tarqatadi. O‘quvchilar yonlarida o‘tirgan partadosh o‘rtog‘iga bu savollarni beradi. O‘qituvchi o‘tilganlarni mustahkamlash maqsadida savollar beradi.

-Qanday so‘rog‘iga javob bo‘luvchi gap ayting?

- Nimaga so‘rog‘iga javob bo‘luvchi gap ayting?

- Qanaqa so‘rog‘iga javob bo‘luvchi gap ayting?

2. O‘qituvchi yangi mavzu va dars maqsadini e‘lon qiladi. (1 minut).

O‘qituvchi insonlarning nutqi gaplardan, so‘zlardan iborat ekanini, so‘zlar esa qaysidir so‘roqqa javob bo‘lishi haqida gapiradi. Nutq yozma va og‘zaki bo‘ladi. Yozma nutq kitoblarda uchraydi.

O‘qituvchi hozirgi bajariladigan vazifa kitobga bog‘liq ekanini aytadi.

3. O‘qituvchi o‘quvchilarni 5-6- kishilik guruhlariga bo‘ladi. Har bir guruhga konvert (ichida gapdagi so‘zlari alohida – alohida qirqib solib qo‘yilgan) beradi. O‘quvchilar bu so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib gap tuzishlari kerak. (5 minut)

4. Ikkinchi vazifa beriladi. 1-2-3-guruhlar matnning birinchi yarmi, 4-5-6-guruhlar esa matnning ikkinchi yarmi bilan ishlaydilar. Guruhlar matndan berilgan gap bo'laklariga oid so'zlarni yozadilar: 1- guruh qanday, 2- guruh qanaqa, 3- guruh nimani, 4-guruh ot, 5- guruh nimaga, 6-qachon kabi so'roqlarga javob bo'luvchi so'zlarni topib, A-2ga yozadi.(8min)

4. **Taqdimot.** (10 minut) Guruhdan ikki o'quvchi chiqadi. Bir o'quvchi chiqib, tuzilgan gapni o'qib beradi. Ikkinchi o'quvchi berilgan ikkinchi darajali bo'laklarga oid topilgan so'zlarni o'qib beradi.

5.**Muhokama.** (9 minut)

Guruhda ishlash sizga yoqdimi?

So'zlardan gap tuzayotganda qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?

Matndagi so'zlarni gap bo'laklarga ajratishda-chi?

Kim yordam berdi?

Agar do'stingiz yordam bergan bo'lsa, shu paytda o'zingizni qanday his qildingiz?

Bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar bilan qanday farq bor ekan?

Insonga kitob nima uchun kerak deb o'ylaysiz?

Kitob yaxshi saqlanishi uchun nima qilish kerak deb o'ylaysiz?

5. Daftarga "Kitob" matnini yozish. (6 minut)

Izoh . Matn:

"Kitob"

Kitob - xazina. Kitobning xar bir sahifasida ajoyib va qiziqarli ma'lumotlar yozilgan. Insoniyatning eng yaxshi farzandlari bolalikdan kitob bilan do'stlashgan. Kitob – bilim bulog'i. Bilim tuynukdan tushgan nur kabi bolalar ko'zida yiltillaydi.

Qadrli bolalar! Sizning qarshingizda yorqin dunyo, katta hayotga yo'llovchi eshiklar ochilgan. Nur sari dadilroq qadam tashlang. Kitobni eng yaqin do'stingiz deb biling. Kitobning har varag'ini avaylang. Kitobni o'qish qoidalariga amal qiling.

Ikkita guruhga ichida bir xil so'zlar solingan konvertlar berilishi mumkin.

1-konvert: kim, ko‘p, ko‘p, o‘qisa, u, biladi.

2-konvert: bilim, manbai, kitob.

3-konvert: kitob, bilim, bulog‘i.

4-konvert: yaqin, kitob, eng, do‘st.

O‘quvchilar partadosh o‘rtog‘iga beradigan savollar:

Savollar

* Ona tilimizdagi qanday gap bo‘laklarini bilasan?

* Qanday so‘roqqa javob bo‘ladigan so‘z ayting? Misol keltir.

*Nimaga so‘roqqa javob bo‘ladigan so‘z ayting? Misol keltir.


* Nimani so‘roqqa javob bo‘ladigan so‘z ayting? Misol keltir.

* Qanaqa so‘roqqa javob bo‘ladigan so‘z ayting? Misol keltir.

2-mezon

Me‘zonlar								
3-A 30 nafar o‘quvchi				3-B 29 nafar o‘quvchi				
Gap bo‘laklari nechaga bo‘linadi	Nima ni? so‘rogiga javob bo‘luvchi so‘z ayting	Ikkinchi darajali bo‘laklar savollari ni ayting	Qan day? so‘roqlariga so‘z ayting	Gap bo‘laklari nechaga bo‘linadi	Nima ni? so‘rog‘i ga javob bo‘luvchi so‘z ayting	Ikkinchi darajali bo‘laklar savollari ni ayting	Qanday? so‘roqlariga so‘z ayting	
18 ta - 60 %	14 ta – 46 %	16 ta - 53 %	17 ta - 56 %	15 ta - 51 %	13ta - 44 %	13 ta - 44 %	18ta - 62%	

2-jadval



Ushbu natijalar tahlili shundan dalolat bermoqdaki, boshlang'ch sinf o'quvchilarining ikkinchi darajali bo'laklarni o'rganish darajadasi qoniqarli bo'lib, o'quvchilar ikkinchi darajali bo'lakli bo'yicha bilimni oshirish uchun ko'plab muammolarni hal etish, shu bilan birga o'quvchilari bilan matn va uning turlaridan unumli foydalanish, qolaversa, ushbu ezgu ishni amalga oshirishda butun kuch va imkoniyatlarni ishga solishga to'g'ri keladi.

Har ikkala sinf o'quvchilari yo'l qo'ygan xatolar sinchiklab o'rganib chiqildi. Tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf etish chora-tadbirlari ustida tinimsiz ishlar olib borildi. Xatolarni bartaraf etishda ikkinchi darajali bo'laklarni bilishi lozim degan fikrga keldik.

Tajribadan keyingi natijalar:

Ko'rinib turibdiki, olib borgan tajriba-sinov ishlarimiz samarali natijalar bergan. Tajriba sinfimizda tajribadan oldin o'quvchilarning imlo savodxonlik darajasi 45 foizni tashkil qilgan bo'lsa, tajriba-sinov ishlari so'nggida 53 foizni tashkil qildi. Demak, 3-A sinf o'quvchilarining imlo savodxonlik darajasi 8 foizga oshirilgan. Nazorat sinfida ham tajribadan oldin o'quvchilarning imlo savodxonlik darajasi 39 foizni tashkil qilgan bo'lsa, tajriba-sinov ishlari so'nggida 45 foizni tashkil qildi. Demak, 3-B sinf o'quvchilarining imlo savodxonlik darajasi 6 foizga oshirilishiga erishilgan.

Yuqorida keltirilgan jadval va diagrammalar ko'rsatkichlaridan ko'rinib turibdiki, olib borilgan tajriba-sinov ishlari o'zining samarali natijalarini berdi va

o'quvchilarni savodli yozishga o'rgatishda biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erishdik.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko'pqirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik, mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Ona tili darsida beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so'zlarning o'zgarishi gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi (grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik); so'zning morfemik tarkibi va so'z yasaliş usullari haqidagi (so'z yasalişiga doir); so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (leksikologik); o'zbek tili to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarning ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuasion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so'z yasalişiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuasion qoidalarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, o'zbek tili kursi (fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa) ko'nikma va malakalarni ham o'z ichiga oladi.

Tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarda boshqa ko'pgina o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan ko'nikmalar (predmetlararo ko'nikmalar)ni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday predmetlararo ko'nikmalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasavvur etish), umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ko'rsatilgan ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirish ustida maqsadga muvofiq, ishlash ularning o'quv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga imkoniyat

yaratadi. Ona tili kursidan hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar bilan predmetlararo ko'nikmalar, bir-biridan ajratilmagan holda, o'quv-tarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'quvchilarni gapning hosil bo'lish jarayoni, gap bo'laklari tushunchalari bilan tanishtirish boshlang'ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar amaliy o'rganiladigan nazariy o'rganiladigan bilimlarga bo'linadi. Sintaksisga oid bilimlarni amaliy o'rgatish savod o'rgatish davridayoq boshlanadi va 3-4-sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang'ich sinfda "Gap", "Darak gap", "So'roq gap", "Buyruq gap", "His-hayajon gap", "Sodda gap", "Gap bo'laklari", "Gapning uyushiq bo'laklari", "Undalmali gaplar" mavzulari nazariy o'rganiladi. Bu mavzular yuzasidan turli mashqlar bajariladi.

Bosh va ikkinchi darajali bo'laklar tushunchalari umumiy o'rgatiladi. Ikkinchi darajali bo'laklarning belgilari o'rgatiladi. Lekin alohida-alohida nom bilan o'rgatilmaydi. Shunga qaramasdan to'ldiruvchi, aniqlovchi va hollarning bir-biridan farqli tomonlari haqidagi bilimlar beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1.Karimov I.A.“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” “Ma’naviyat”, Toshkent. 2008 -yil, 176 b;

2. 2017- yil 20- apreldagi ”Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi qarori.

II Ilmiy-uslubiy adabiyotlar:

1. Xolmanova. T.Z .Tilshunoslikka kirish. Toshkent.2005-yil.148-b;
2. Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.200 b.
3. Qosimova K., Safo Matchonov va boshqalar. “Ona tili o’qitish metodikasi”. Toshkent. “Noshir” nashriyoti, 2009-yil, 365 b.
4. Boshlang’ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti. Boshlang’ich ta'lim . 2005-yil, 5- son;
5. O’zbekiston Respublikasining Milliy dasturi. Toshkent,1998-yil;
6. Davlat Talim Standartining boshlang’ich ta’lim o’quv dasturi (yangi tahrir) 2010 -yil, 28 b;
7. Azizxo’jayeva N.N. Pedagogik texnolofiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006-yil, 180 b.
8. Xolmanova. T.Z .Tilshunoslikka kirish. Toshkent.2005-yil.148-b;
9. Bo’ri Ziyamuhammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnoloya-zamonaviy o’zbek milliy modeli. Toshkent. 2009-yil, 234 b;
- 10.Ikromova R va boshqalar. “Ona tili”, 4-sinf uchun. Toshkent, “O’qituvchi”, 2016-yill, 188b;
- 11.Qosimova K va boshqalar “ Ona tili ” 2- sinf uchun T., “O’qituvchi ” 2016 –yil, 198 b;
- 12.G’afforova T. va boshqalar. «Ona tili» 1-sinf, T., «Sharq» 2016-yil, 125 b;
- 13.G’ulomova X. va boshqalar. «1-sinfda ona tili darslari», T., «Sharq», 2016 -yil. 110 b;

14. Yusupov. M. O'qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish, Namangan., 1990 -yil, 84 b;
15. Yusupov M., Boshlang'ch sinf o'qish darslarining o'ziga xos xususiyatlari. T- 1992-yil, 36- b;

III Internet materiallari:

1. <http://www.google.co.uz/> - “Yasovchi qo'shimchalar”
2. <http://www.referat.uz/> - “ Qoshimshalar ma'no turlari”
3. <http://www.ziynet.uz/> - “Predmetlararo bog'lanishlar
4. WWW ziyo edi o'z - “Elektron darsliklar ba'zasi”

